

2025-yil 15-aprelda tushgan testlar

1. Bolalar bilan muloqot qilish va ularning qadr qimmatini tan olish o'qituvchining qaysi kompetensiya standartlariga kiradi?

- A) O'quv jarayonini rejalashtirish
- B) Ta'lif samaradorligini taminlash
- C) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish**
- D) Xavfsiz rivojlanfiruvchi ta'lif muhitini yaratish

2. **Deduksiya - Umumiyl bilimdan xususiy bilimga borish** usuli Umumiyl holatdan juz'iy xulosa chiqargan holda muhokama yuritish; umumiyl holatdan juz'iy natija chiqarish = **D-U-X**

3. **Induksiya** - ayrim fikrlardan umumiyl xulosalar chiqarishda va mantiqiy tadqiqotlarga qo'llaniladigan muhokama usuli. **Xususiylikni o'rganib, umumiyl bilib olinadi. I-X-U**

diqqatini jalg etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan bat afsil o'yash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rnlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda **bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar.** Suhbatning **induktiv** shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida **umumiyl xulosaga** kelinadi.

4. **Analogiya** - bunda predmetlar ba'zi belgilarining o'xshashligi bo'yicha bu predmetlar boshqa belgilari bo'yicha ham o'xshash, degan taxminiy xulosa chiqariladi. "**Xususiydan xususiyga boradigan**", bir konkret faktidan **boshqa konkret faktlarga** boradigan xulosadir.

Deduksiya=**U-X**

Induksiya=**X-U**

Analogiya=**X-X**

5. Blum taksonomiyasini mezonlarining ketma-ketligini toping.

Bilish, Tushunish, Qo'llash, Tahlil, Sintez, Baholash;

Blum taksonomiyasi bosqichlari

BILISH

1 dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo‘nalishlar, kategoriyalar, tasniflar, shuningdek, abstract bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremlar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shu kabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqeа-hodisalarini bayon qila oladi.

TUSHUNISH

2 darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza oladi, o‘zgartira oladi (so‘zdan raqamga yoki obrazga), mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi.

QO‘LLASH

3 darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, noan’anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma’lum bir model, formula, ko‘rsatma asosida to‘g‘ri qo‘llaydi.

Blum taksonomiyasi bosqichlari

TAHLIL QILISH


4 darajasidagi tafakkurda o‘quvchi yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko‘radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini baholaydi.

SINTEZ

5 Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o‘quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o‘tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ayrim materiallar asosida butunning, yaxlitning obrazini, ko‘rinishini yaratadi. Bu bosqich tegishli natijalardan yangi jadval tuzishga urg‘u beruvchi ijodiy xarakterdagи faoliyatni taqozo etadi.

BAHOLASH

6 Mazkur kategoriya yuqorida ko‘rsatilgan barcha kategoriyal bo‘yicha o‘quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi. Ichki va tashqi mezonlar asosida baholaydi, o‘quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko‘radi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi.



1-infogramma. B. Blum o'quv materiali bilan tanishishning 6 darajasi

1. Bilish

Bu bosqichda talaba mavzu bo'yicha eslab qolgan ma'lumotlarni takrorlaydi, atama va tushunchalarni aniqlaydi, nomlaydi, yozadi, ko'rsatadi. Talaba mavzu haqida **umumiy tasavvurga ega bo'ladi**.

2. Tushunish

Bu bosqichda talaba fakt va g'oyalarni anglaydi, ularni tizimlashtiradi va solishtiradi. O'rgangan bilimini **o'z so'zlari bilan ifodalaydi**.

3. Amaliyotga qo'llash

Bu bosqichda talaba o'zlashtirgan bilimni **amaliy vazifalarni bajarishda ishlatadi**, ya'ni ularni qo'llaydi, tushuntiradi, hisoblaydi, tekshiradi.

4. Tahlil

Talaba bilimlarning tuzilishini tushunadi, ularni qismlarga ajratadi, mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tahlil qiladi, solishtiradi.

5. Sintez

Talaba avvalgi bosqichlardagi bilimlarni **birlashtirib**, yangi g'oya yoki yechim yaratadi. Bu bosqichda **reja tuzish, guruhash, umumlashtirish muhim**.

6. Baholash

Bu eng yuqori bosqich bo'lib, talaba **bilimlarini baholaydi**, asoslaydi, nuqtai nazarini himoya qiladi. U mustaqil **tahlil qiladi, baholaydi, muhokama qiladi**.

1. Bilish**Darsda qanday qo'llanadi:**

- Mavzuning asosiy tushunchalari, atamalari va faktlarini o'rgatishda ishlatiladi.
- O'qituvchi o'quvchilardan "Kim?", "Qachon?", "Qayerda?" kabi savollarga javob berishni so'raydi.

2. Tushunish**Darsda qanday qo'llanadi:**

- O'quvchilar mavzuni tushunib, uni **o'z so'zlari bilan ifodalashga** o'rgatiladi.

3. Amaliyotga qo'llash**Darsda qanday qo'llanadi:**

- O'rganilgan bilimni **hayotda yoki boshqa vaziyatlarda qo'llash** o'rgatiladi.

4. Tahlil**Darsda qanday qo'llanadi:**

- O'quvchilar bilimni **tarkibiy qismlarga ajratadi**, sabab-oqibatni tushunadi.

5. Sintez**Darsda qanday qo'llanadi:**

- O'quvchi o'z bilimini **ijodiy tarzda birlashtirib**, yangi g'oyalar yaratadi.

6. Baholash**Darsda qanday qo'llanadi:**

- O'quvchi bilimlarini **mustaqil baholaydi, fikr bildiradi**, nuqtai nazarini asoslidaydi.

1. Biologiya fani o'qituvchisi o'quvchilarga yurak tuzilmasi bo'yicha asosiy atamalarni aytib berishni topshirdi: yurak kamerasi, qon aylanishi, aorta, vena kabi tushunchalarni yod olish vazifasi berildi. Dars so'ngida o'qituvchi: "Yurakning chap bo'lagi nima deyiladi?" kabi savollar berdi.

Ushbu faoliyat **Bloomning qaysi bosqichiga** mos keladi?

a) Tushunish b) Amaliyotga qo'llash

c) Bilish d) Tahlil

2. Tarix fani o'qituvchisi o'quvchilardan "Ikkinchi jahon urushi sabablari"ni o'z so'zlari bilan tushuntirib berishni, darslikdagi matndan asosiy g'oyalarni topib, qisqacha bayon qilishni so'radi.

Bu dars jarayoni Bloomning qaysi bosqichiga kiradi?

a) Tushunish b) Tahlil

c) Yaratish d) Bilish

3. Matematika fani o'qituvchisi o'quvchilarga formulalarni tushuntirib bo'lgach, "Shu formulani hayotdagi real vaziyatga qo'llab, masala yeching" deb topshiriq berdi.

Ushbu topshiriq Bloomning qaysi bosqichiga mos?

a) Tahlil b) Sintez

c) Qo'llash d) Bilish

4. Adabiyot darsida o'qituvchi o'quvchilarga asardagi bosh qahramon xatti-harakatlarini tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash, boshqa qahramonlar bilan solishtirishni topshirdi.

Bu jarayon Bloomning qaysi bosqichiga mansub?

a) Tahlil b) Tushunish

c) Bilish d) Amaliyotga qo'llash

5. Geografiya darsida o'qituvchi o'quvchilardan "Ekologik muammolarni hal qilish uchun yangi yechimlar ishlab chiqing" deb topshiriq berdi. Ular guruhlarda muammoga yechim taklif qilishdi.

Bu vaziyat Bloomning qaysi bosqichiga mos?

- a) Tushunish
- b) Sintez**
- c) Bilish
- d) Baholash

6. Huquqshunoslik darsida o'qituvchi o'quvchilarga biror ijtimoiy masala yuzasidan o'z pozitsiyalarini asoslab, ishonarli dalillar bilan himoya qilishlarini so'radi.

Bu faoliyat Bloom taxonomiyasining qaysi bosqichiga to'g'ri keladi?

- a) Tahlil
- b) Amaliyot
- c) Baholash (Xulosalash)**
- d) Tushunish

Blum taksonomiyasi. Vaziyatli savollarda keladi

1. **Bilish** – Faktlar, atamalar, qoidalar va ma'lumotlarni yod olish.
Misol: "Tushuncha ta'rifini ayting."
2. **Tushunish** – Olingan ma'lumotni tushunish, izohlash.
Misol: "Berilgan matnni o'z so'zlaringiz bilan izohlang."
3. **Qo'llash** – O'rganilgan bilimni yangi vaziyatda qo'llash.
Misol: "Formulani masalani yechishda ishlating."
4. **Tahlil** – Axborotni qismlarga ajratish, sabab-oqibatlarni aniqlash.
Misol: "Muammoning sabablarini ajratib ko'rsating."
5. **Sintez** – Yangi g'oya yoki tizim yaratish.
Misol: "Yangi yechim taklif qiling."
6. **Baholash** – Fikr, qaror yoki yechimni asoslab, baho berish.
Misol: "Berilgan fikrni dalillar asosida baholang."

Qisqacha formulasi: Bil – Tushun – Qo'llan – Tahlil – Sintez – Bahola

1. Bilish - Dastlabki tafakkur bosqichi. O'quvchi atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalarni biladi, eslaydi, bayon qiladi.

2. Tushunish - O'quvchi ma'lumotni tushunadi, qayta tuzadi, o'zgartiradi, taxminiy izohlaydi.

3. Qo'llash - O'quvchi olgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay oladi (formulalar, modellarda).

4. Tahlil - O'quvchi ma'lumotni qismlarga ajratadi, sabab-oqibat aloqalarini tahlil qiladi, farqlarni aniqlaydi.

5. Sintez - O'quvchi bir nechta bilim asosida yangi tizim, loyiha, yechim yaratadi. Ijodiy faoliyatni amalga oshiradi.

6. Baholash - O'quvchi mezonlar asosida fikr, yechim, natijalarni asoslaydi, taqqoslaydi, xulosa chiqaradi.

1. Dastlabki tafakkur bosqichi. O'quvchi atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalarni biladi, eslaydi, bayon qiladi.

Bu Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga xos?

- A) Tahlil
- B) Bilish**
- C) Qo'llash
- D) Baholash

2. O'quvchi ma'lumotni tushunadi, qayta tuzadi, o'zgartiradi, taxminiy izohlaydi.

Bu Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga xos?

- A) Tushunish**
- B) Baholash
- C) Sintez
- D) Bilish

3. O'quvchi olgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay oladi (formulalar, modellarda).

Bu Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga xos?

- A) Tushunish
- B) Qo'llash**
- C) Baholash
- D) Sintez

4. O'quvchi ma'lumotni qismlarga ajratadi, sabab-oqibat aloqalarini tahlil qiladi, farqlarni aniqlaydi.

Bu Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga xos?

- A) Tahlil**
- B) Sintez
- C) Baholash
- D) Bilish

5. O'quvchi bir nechta bilim asosida yangi tizim, loyiha, yechim yaratadi. Ijodiy faoliyatni amalga oshiradi.

Bu Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga xos?

- A) Tushunish
- B) Baholash**
- C) Sintez**
- D) Tahlil

6. O'quvchi mezonlar asosida fikr, yechim, natijalarni asoslaydi, taqqoslaydi, xulosa chiqaradi.

Bu Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga xos?

- A) Bilish
- B) Baholash**
- C) Tahlil
- D) Qo'llash

Ushbu ma'lumotlar pedagogik vaziyatli savol bo'lib tushgan. Nazariy ma'lumotlarni bilib, vaziyatlarda ajratib olish lozim.

1. Umumpedagogik (makro) daraja

Bu darajadagi texnologiyalar yaxlit **pedagogik jarayonga** tegishli bo'ladi. Ular muammoli, tabaqalashtirilgan, integratsion, shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi, modulli, masofali o'qitish texnologiyalari kabi keng ko'lamli va innovatsion yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

- Novator o'qituvchilar, olimlar, izlanuvchilar tomonidan ishlab chiqiladi.
- Samaradorligi kafolatlangan bo'lishi kerak.
- Amaliyotga keng tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- So'ngra amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladi.

2. Xususiy-metodik (mezo) daraja

Bu daraja **ma'lum bir o'quv fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejorashtirishga** qaratilgan bo'ladi. Har bir fan uchun alohida texnologiya yaratiladi.

- Boshlang'ich sinf o'qituvchisi **o'qish darsi** uchun har safar **texnologik model** (loyihalash) va **texnologik xarita** (rejorashtirish) tuzadi.
- Bu orqali har bir fan uchun **o'ziga xos o'qitish texnologiyasi** yuzaga keladi.

3. Lokal (mikro) daraja

Bu darajadagi texnologiyalar **o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum tarkibiy qismlariga** yoki **maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirishga** qaratilgan bo'ladi.

- Mantiqiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi
- Aqliy qobiliyatni rivojlantirish texnologiyasi

Ya'ni, bu texnologiyalar alohida shaxs sifatlari va maxsus o'quv ko'nikmalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O'qituvchi barcha fanlarga tatbiq etish mumkin bo'lgan rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi asosida dars olib bordi. Bu texnologiya ilg'or pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan.

Bu holatda qaysi darajadagi pedagogik texnologiya qo'llanilgan?

- A) Lokal (mikro)
- B) Umumpedagogik (makro)**
- C) Xususiy-metodik (mezo)
- D) An'anaviy yondashuv

O'qituvchi darsga tayyorlanayotganda har bir mashg'ulot uchun alohida **texnologik xarita** tuzdi. Bu xaritada maqsad, metod, vosita, kutilgan natijalar batafsil rejorashtirilgan.

Ushbu vaziyat qaysi darajaga mos keladi?

- A) Lokal (mikro)
- B) Umumpedagogik (makro)**
- C) Xususiy-metodik (mezo)**
- D) Diagnostik yondashuv

O'qituvchi 6-sinf o'quvchilari bilan mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o'tkazdi. Bu mashqlar o'quvchilarning individual qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qildi.

Bu vaziyat qaysi darajadagi pedagogik texnologiyaga mos keladi?

- A) Xususiy-metodik (mezo)
 B) Umumpedagogik (makro)
C) Lokal (mikro)
 D) Didaktik tamoyil

O‘qituvchi o‘z darslarida masofaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va integratsion o‘qitish texnologiyalarini birgalikda qo‘llab, umumiy yondashuv asosida yangi o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘ydi.

Bu holatda qaysi texnologik daraja aks etmoqda?

- A) Umumpedagogik (makro)**
 B) Lokal (mikro)
 C) Fan doirasidagi metodik yondashuv
 D) O‘quv faniga yo‘naltirilgan texnologiya

O‘qituvchi dars jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni tanladi. U barcha fan va sinflarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan texnologiyadan foydalandi. Bu qaysi darajaga mansub?

- A) Xususiy-metodik
B) Umumpedagogik
 C) Lokal
 D) Tarbiyaviy

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir “O‘qish” darsiga oldindan texnologik xarita tuzib, unga mos metodlarni tanladi. Bu qanday darajadagi texnologiya?

- A) Umumpedagogik
B) Xususiy-metodik
 C) Lokal
 D) Amaliy

O‘qituvchi darsda o‘quvchilarning **mantiqiy fikrlashini** rivojlantirish uchun maxsus mashqlar tuzdi. Bu qanday texnologiya darajasiga kiradi?

- A) Umumpedagogik
 B) Xususiy-metodik
C) Lokal
 D) Global

Daraja	Mazmuni (soddalashtirilgan)	Misollar
Umumpedagogik (makro)	Butun ta‘lim jarayoniga oid yondashuv. Har qanday fan yoki bosqichda qo‘llanadi.	Rivojlantiruvchi, masofaviy, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar.
Xususiy-metodik (mezo)	Maxsus bir fan doirasidagi yondashuv. Har bir dars uchun texnologik xarita, model yaratiladi.	Ona tili darsining texnologik xaritasi, tarix darsiga mos metod tanlash.
Lokal (mikro)	Ma‘lum bir ko‘nikma, sifat yoki jihatni shakllantirishga qaratilgan texnologiya.	Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, diqqatni kuchaytirish mashqlari.

METODLAR

1. Pedagogik **kuzatish** metodi

- Tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi.
- Tajriba **avvali va yakunidagi ko'rsatkichlar solishtiriladi**.
- Aniq maqsad asosida, uzuksiz, izchil va tizimli olib boriladi.
- Ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi.
- Tadqiqotchidan sinchkovlik, ehtiyyotkorlik va tizimlilik talab qilinadi.

2. Suhbat metodi

- Kuzatish jarayonida olingan ma'lumotlarni boyitadi.
- Muammoni tushunish va yechim topishga yordam beradi.
- **Suhbat individual, guruhli yoki ommaviy** shaklda o'tkaziladi.
- Savollar mantiqiy, izchil va suhbatdosh erkin fikr bildirishi uchun qulay bo'lishi kerak.
- Samimiylar munosabat va aniq **savollar** muhim shart hisoblanadi.

3. Anketa metodi

- Yozma ravishda javoblar olinadi.
- **Ochiq va yopiq savollar** asosida tashkil etiladi.
- Muammo mohiyatiga xizmat qiluvchi, aniq va qisqa savollar tuziladi.
- Javoblar puxta tahlil etiladi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olinadi.
- Tahlil mezonlari asosida amalga oshirilishi lozim.

4. Intervyu metodi

- Respondentning hodisaga munosabati o'rganiladi.
- **Savollar turkumi** orqali suhbat o'tkaziladi.
- Tadqiqotchi savollarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi.
- Savollar asosida chuqur tahlil va tushunchalar shakllanadi.

5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi

- Rasmiy hujjatlar orqali ta'lim muassasasi faoliyati o'rganiladi.
- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida baholash olib boriladi.
- Ilg'or tajribalarni aniqlash va **ommalashtirishga** xizmat qiladi.
- O'quv-tarbiya samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

6. Test metodi

- **Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar darajasi aniqlanadi**.
- **Ochiq, yopiq va to'g'ri javobli savollar** orqali tashkil etiladi.
- Tahlil uchun **Aniq mezonlar** mavjud, vaqt tejaladi.
- Respondent o'z fikrini batafsil ifoda eta olmasligi mumkin.

7. Pedagogik tahlil metodi

- Muammoning **falsafiy, psixologik va pedagogik jihatdan o'rganilganlik darajasini** aniqlaydi.
- Ilgari surilayotgan g'oyaning nazariy asoslarini ko'rsatadi.
- Tadqiqotga ilmiy asos beradi, adabiyotlar tahlili orqali puxta yondashuv shakllantiriladi.

8. Bolalar ijodini o'rganish metodi

- O'quvchining layoqati, qobiliyati, bilim va ko'nikmalar darajasi aniqlanadi.
- Ijodiy ishlar: **insho, referat, kundalik, hisobotlar** asosiy manba hisoblanadi.
- O'quvchining individual imkoniyatlarini olib berishga xizmat qiladi.
- Tanlovlardan, ko'rgazmalar, bellashuvlar, olimpiadalar orqali amalga oshiriladi.

9. Pedagogik tajriba (eksperiment) metodi

- **Muammo yechimini topish** imkoniyatlarini o'rganadi.
- Maxsus metodika samaradorligini **amaliyotda sinab ko'radi**.
- Belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi.
- Taklif etilayotgan tavsiyalarning amalda **samaraga berishini** aniqlaydi.

1. Ta'limi o'yinlar yoki raqobatchilik – **raqobat** yoki o'yin orqali guruh yoki shaxsning boshqalardan **ustunligini** anglashga yordam beradi. **Kompyuterli o'yinlar** ham keng tarqalgan.
2. Brainstorming – **ijodiy fikrlarni to'plash** uchun ishlataladi. Bunda **ishtirokchilar tanqidsiz** o'z fikrlarini bildiradi va **muammo yechimini** izlaydi. Masalan, **ocharchilik muammosi** haqida o'quvchilarning fikrlari **qayd qilinib**, eng maqbul yechimlar tanlanadi.
3. Case study – talabalar biror **voqeа yoki vaziyatni tahlil qiladi**, unga oid bilim va **tushunchalarni** qo'llaydi, biror sodir bo'lgan voqeа yoki ma'lum vaziyatni **tafsilotini namoyish etadilar**
4. Qiziqishlar markazi – turli **kolleksiya va ekspozitsiyalar** orqali o'quvchilarning **qiziqishini** oshiradi. Masalan, **etnik kelib chiqish** haqida materiallar olib kelish va sinfdoshlariga taqdimot qilish vazifa sifatida berilishi mumkin.
5. Colliqua – sinfga **mehmonlar** taklif qilinib, ular o'z kasbi va **faoliyati haqida** so'zlab beradi. Masalan, sozanda **jonli ijro** orqali o'quvchilarda **musiqaga muhabbat** uyg'otadi.
6. Hamkorlikda o'qitish – yuklatilgan vazifa va muammolarni **birgalikda hal qilish** ko'nikmasini shakllantiradi.
7. Ommaviy madaniyat tazyiqi (culture jamming) – ommaviy axborot vositalari ta'siriga qarshi turish va **stereotiplarni yengish** ko'nikmasini shakllantiradi.
8. Debat – muayyan **mavzu yoki muammoga** turli nuqtai nazarlar bilan **yondoshish** va o'z **fikrini himoya qilish** usuli.
9. Debriefing – muayyan **tajriba yoki sinovdan** so'ng hissiy kechinmalar va intellektual **xulosalar** bilan **almashish** jarayoni.
10. Demonstratsiya – muayyan jarayon yoki qurilmaning ishlashini **namoyish qilish** usuli.
11. Kashfiyat yoki tadqiqotchilik – muayyan vaziyat yoki holatga nisbatan **yangilik** yoki o'z nuqtai nazarni **ilgari surishni** taqazo etadi
12. Diskussiya – muayyan **mavzu yoki holatni** **muhokama** qilish, turli fikrlarni taqqoslash jarayoni.

TA'LIM METODLARI

1. Hikoya metodi

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, **tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi**. Hikoyaning samaradorligi o'qituvchining so'z mahorati, ifodaliligi hamda o'quvchilarning yoshi va rivojlanish darajasiga bog'liq. Ushbu metod mavjud bilimlarga tayanib, yangi bilimlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

2. Suhbat metodi

Suhbat – **savol-javob shaklidagi dialogik ta'lrimetodi bo'lib**, Suqrot tomonidan ham qo'llanilgan. Suhbat o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, hozirjavobligini va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Suhbat jarayonida o'qituvchi

savollarning ketma-ketligini oldindan belgilaydi va barcha o'quvchilarning e'tiborini jalb etishga harakat qiladi. **Kirish, yakuniy, Individual, guruhi...** kabi turlari mavjud

Suhbatning turlari:

- **Deduktiv suhbat** – umumiy qoidalar asosida **xususiy** xulosalar chiqariladi.
- **Induktiv suhbat** – alohida dalillardan **umumiyl** xulosaga kelinadi.

3. Tushuntirish metodi

Tushuntirish – o'quv materialini **isbot, tahlil, umumlashma va taqqoslash asosida** bayon qilish usuli. Bu metod nazariy materiallar va murakkab masalalarni o'rganishda qo'llaniladi. Tushuntirish samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq.

4. Ma'ruza metodi

Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini qat'iy mantiqiy ketma-ketlik asosida bayon qilish usuli. Ushbu metod yuqori sinflarda qo'llanilib, o'quvchilarni konseptlashga o'rgatadi. Ma'ruza jarayonida sabab-oqibat bog'lanishlari, qonun va qoidalar izchil yoritiladi.

5. Ko'rgazmali metodlar

- **Illyustratsiya metodi** – narsa, hodisa va jarayonlarni ularning **ramziy ko'rinishlari** (chizma, portret, rasm, fotosurat, modellar) orqali tushuntirish.
- **Namoyish metodi** – o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'llaniladi. Ushbu metod tashqi ko'rinish va ichki tuzilishni o'rganishda foydali.

6. Amaliy metod

Amaliy metod – nazariy bilimlarni amaliy masalalarni yechishda qo'llash usuli. Bu metod sinfda yoki **tabiiy sharoitlarda (maktab er maydoni, issiqxonasi, geografik maydonlar)** amalga oshirilishi mumkin. O'quvchilarning harakatlari o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnomalar beriladi.

7. Mashq metod

Mashq – aqliy yoki amaliy harakatlarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun **ko'p marta takrorlash**. Mashqlar turli shakllarda bo'lishi mumkin:

- **Og'zaki** – savol-javob, hikoya qilish;
- **Yozma** – diktant, test;
- **Grafikaviy** – chizma va diagrammalar orqali tushuntirish;
- **Jismoniy** – harakat orqali o'rganish.

8. Laboratoriya Ishlari

Laboratoriya ishlari – maxsus jihoz, uskuna va texnik vositalar yordamida tajribalarni o'tkazish usuli. Bu metod tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda muhim bo'lib, o'quvchilarning mustaqil o'lchash va tajriba qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

9. Didaktik O'yin

Didaktik o'yin – o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshirishga xizmat qiluvchi o'quv faoliyati turi. O'yin o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirib, hodisalar va jarayonlarni modellashtirish orqali bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Bu qo'llanma ta'lim jarayonida samarali metodlarni tanlash va qo'llashga yordam beradi.

Pedagogik metodlarni aniqlash bo'yicha test savollari

1. O'qituvchi o'quvchilarga tarixiy voqeani jonli va tasviriy tarzda bayon qilib beradi, bu jarayonda u muhim shaxslar, hodisalar va ularning natijalari haqida hikoya qiladi. Bu qaysi metod?
A) Hikoya
B) Suhbat
C) Ma'ruza
D) Namoyish
2. Dars jarayonida o'qituvchi mavzu bo'yicha savollar berib, o'quvchilarni javob berishga undaydi, natijada yangi bilimlar o'zlashtiriladi. Bu qaysi metod?
A) Tushuntirish
B) Mashq
C) Suhbat
D) Didaktik o'yin
3. O'quvchilar murakkab tushunchalarni osonroq tushunishlari uchun o'qituvchi mavzuni turli taqqoslashlar, dalillar va misollar asosida izohlab beradi. Bu qaysi metod?
A) Namoyish
B) Tushuntirish
C) Amaliy mashg'ulot
D) Suhbat
4. Yuqori sinf o'quvchilari yangi mavzuni tinglash orqali o'rganadilar, o'qituvchi uni tartib bilan tushuntirib, asosiy fikrlarni izohlab beradi. O'quvchilar bu jarayonda konspekt tuzadilar. Bu qaysi metod?
A) Ma'ruza
B) Hikoya
C) Suhbat
D) Amaliy ish
5. O'quvchilar murakkab jarayonni tushunish uchun rasmlar, diagrammalar, grafiklar va fotosuratlardan foydalanib, mavzuni chuqur o'rganadilar. Bu qaysi metod?
A) Amaliy ish
B) Hikoya
C) Illyustratsiya
D) Tushuntirish
6. O'qituvchi sinfga real obyekt yoki uning modellashtirilgan shaklini ko'rsatib, uning harakat dinamikasi yoki tuzilishini tushuntirib beradi. Bu qaysi metod?
A) Ma'ruza
B) Namoyish
C) Mashq
D) Suhbat
7. O'quvchilar berilgan muammoli masalani hal qilish uchun real sharoitda amaliy ish bajaradilar, tajribalar o'tkazadilar yoki mashg'ulotlarda ishtirok etadilar. Bu qaysi metod?
A) Hikoya
B) Amaliy metod
C) Illyustratsiya
D) Didaktik o'yin

8. O'quvchilar ma'lum bir topshiriqni bajarish uchun jismoniy yoki aqliy harakatlarni ko'p marta takrorlaydilar, natijada ko'nikma hosil qiladilar. Bu qaysi metod?
- A) Mashq
B) Suhbat
C) Namoyish
D) Hikoya
9. Dars jarayonida o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, berilgan muammo yoki vaziyat bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar va hamkorlikda yechim topadilar. Bu qaysi metod?
- A) Suhbat
B) Illyustratsiya
C) Interfaol metod
D) Tushuntirish
10. O'qituvchi dars davomida suv bug'ga aylanib havoga ko'tariladi va yana yomg'ir, qor ko'rinishida suvgaga aylanib yerga tushadi dedi va bu holatni doskada chizib ko'rsatdi. Yakunda o'quvchilarni qay darajada tushunganligini bilish uchun savollar berdi.

Bu qaysi metod?

- A) Tasvir
B) Hikoya
C) Ma'ruza
D) Tushuntirish

11. O'qituvchi dars davomida suv bug'ga aylanib havoga ko'tariladi va yana yomg'ir, qor ko'rinishida suvgaga aylanib yerga tushadi dedi va bu holatni rasm orqali ko'rsatib berdi.

Bu qaysi metod?

- A) Tasvir
B) Hikoya
C) Ma'ruza
D) Tushuntirish

KALIT SO'ZLAR

1. Ta'limiy o'yinlar – **raqobat, ustunroq...**
 2. Brainstorming – **ijodkorlik**
 3. Case study – **muammo, tahhlil, tafsiloti**
 4. Qiziqishlar markazi – **tegishli materiallar bilan qiziqishni orttirish**
 5. Colliqua – **mehmon**
 6. Hamkorlikda o'qitish – **guruh bo'lib**
 7. Ommaviy madaniyat tazyiqi – **qarshi tura olish**
 8. Debat – **himoya**
 9. Debriefing – **fikr almashinish**
 10. Demonstratsiya – **namoyish qilish**
 11. Kashfiyot (tadqiqotchilik) – **izlanish, yangilik...**
 12. Diskussiya – **muhokama**
1. **Hikoya** – bayon
 2. **Suhbat** – savol-javob
 3. **Tushuntirish** – isbot, tahlil

4. **Ma’ruza – yirik hamdagi axborotni og’zaki bayon qilish**
5. **Tasvir (illyustratsiya) – ko’rsatma**
6. **Namoyish (demonstratsiya) – faoliyatni ko’rsatish**
7. **Amaliy metod – nazaryani amaliyotda qo’llash**
8. **Mashq – takrorlash**
9. **Laboratoriya ishlari – tajriba**
10. **Didaktik o‘yin – qiziqish**

Кейс-стади. Усулнинг мақсадлари – **бу ҳаётий мухим муаммоларини ўрганишда таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантириш**; ахборотдан тўғри фойдаланишга кўмаклашиш; қарорлар қабул қилишда эркинлик ва ташаббускорликни ривожлантириш. Бу усулдан фойдаланган ҳолда машғулотни ўтказиш учун ўқитувчи дарс мавзуси билан боғлиқ **муаммоли вазиятни таърифлар қўйиши** керак. Бу вазиятни таҳлили қилишда ўқувчи муаммонинг тусини аниқлаши ва унга муносабат билдириши зарур. Ҳар бир ўқувчидаги синфдошлари таклиф қилаётган муаммоли саволлар бўйича ечимлар билан танишишга имкон бўлади. Ўқитувчи ўқувчиларнинг фикр-мулоҳазаларини умумийлаштиради, уларни назария билан боғлайди.

Дискуссия (грухли муҳокама) – бу иштирокчиларга ўз муносабатини билдиришга, ҳам назарий, ҳам амалий масалаларни ечишга имкон берувчи **диалог жараёни**. Дискуссия пайтида ўқувчи ўз фикрларини аниқ намоён этишга, ўз нуқтаи назарини ҳимоя қилиб уни асослашга ва синфдошлар мулоҳазаси бўйича фикр билдиришга ўрганади. Самарали муҳокама ривожланишининг зарур шарти – бу ўқувчининг аввалги дарсларда ва мустақил ишлаш жараёнида олган шахсий билимлари.

Диагностик баҳолаш ўқитишдаги адаптив ўзгартишларга кўмаклашади. Бирламчи диагноз асосида ўқитувчи мазкур таълим циклда **ўқишини бошлашдан илгари ўқувчиларнинг билимлари, кўникмалари ва муносабатларининг бошланғич ҳолатини аниқлайди**; бирламчи баҳолаш натижалари асосида ўқувчи тегишли ўқув режани танлайди ва керак бўлса уни ўқувчиларни эҳтиёжлари ва қобилияtlарига қараб модификация қилиши мумкин.

Форматив баҳолаш – бу **синфда кундалик иш жараёнида олиб бориладиган баҳолаш тури, таълим олувчининг ўзлаштириш жорий кўрсаткичи ҳисобланади, ўқитиш пайтида таълим олувчи ва ўқитувчи ўртасида тезкор ўзаро алоқани ҳамда ўқувчи ва ўқитувчи ўртасида қайта алоқани таъминлайди, таълим жараёнини такомиллатиришга имкон беради.**

Сумматив баҳолаш – **узоқ муддатли ўқитиш циклидан кейин келади ва бу босқични (семестр, ўқув йили) якунлайди.** Сумматив баҳолаш ўқувчиларни баҳолаш тоифасига кирадиванатижагайўналтирилади. Одатдабу баҳолаш жараёни инг семестрёки бўлим якунланганидан кейинги қисми. Унинг мақсади ўқув билимларини текширишдан, яъни бу даврда ўрганилган материални қанчалик ўзлаштирилганлигидан иборат. Сумматив баҳолаш курс ёки дастурнинг самарадорлигини баҳолашга, ўзлаштиришни текширишга мўлжалланган.

Анъанавий ёндашувда баҳолаш – бу **ўқитувчининг ишлаш воситаси**. Замонавий ёндашув эътибор нуқтасини ўзгартиради ва бу жараёнда ўқувчилар фаол қатнашишини назарда тутади, бу эса уларга ўқишишга ёрдам беради.

PEDAGOGIK NAZOKAT yordamida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- talabalar, ota-onalar, vasiylar va hamkasblar bilan bo'ladigan **muloqot samarali tashkil etiladi**;
- muloqot jarayonida turli **nizolar kelib chiqishining oldi olinadi**;
- muloqot ishtirokchilari o'rtasida o'zaro **hamjihatlik**, hamkorlik qaror topadi;
- maqsadlar **birligiga** erishiladi.

Nizoni hal qilishning pedagogik usullari:

1. suhbat;
2. iltimos;
3. ishontirish;
4. nizoga kirishuvchilarga qo'yilgan talablar yoki ishtirokchilarning xatti-harakatlarining noto'g'riliгини **tushuntirish** va boshqalar.

Nizoni hal qilishning ma'muriy usullari:

1. nizoga kirishuvchilar manfaatlarini **kuch bilan bostirish**;
2. ularni boshqa **ishga o'tkazish**;
3. nizo qatnashchilarini turli ko'rinishlarda o'zaro **ajratish**;
4. axloq komissiyasining qarori;
5. rahbar buyrug'i;
6. sud qarori.

Nizoni hal qilishning pedagogik usullarini aniqlang?

1. suhbat;
2. iltimos;
3. Ishontirish
4. jonlantirish;
5. nizoga kirishuvchilarga qo'yilgan talablar yoki ishtirokchilarning xatti-harakatlarining noto'g'riliгини tushuntirish va boshqalar.

- A) 1, 2, 3, 4
B) 2, 3, 4, 5
C) 1, 2, 3, 5
D) 1, 3, 4, 5

Nizoni hal qilishning ma'muriy usullari:

1. nizoga kirishuvchilar manfaatlarini **kuch bilan bostirish**;
2. ularni boshqa **ishga o'tkazish**;
3. nizo qatnashchilarini turli ko'rinishlarda o'zaro **ajratish**;
4. axloq komissiyasining qarori;
5. rahbar buyrug'i;
6. sud qarori.

- A) faqat 1, 2, 3, 4, 5
B) faqat 2, 3, 4, 5, 6
C) faqat 1, 2, 3, 5, 6
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

NUTQ MADANIYATiga - o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi.

Buning uchun **o'qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi**, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va uni **deklamatsiya** bilan o'qiv olishi, radio va televide niye eshittirishlarmi kuzatib borishi lozim.

DEKLAMATSIYA — badiiy o'qish, notiqlik san'atining muhim turlaridan biri.
Badiiy asar yoki undan olingan parchani chiroyli, ta'sirchan qilib yodaki o'qish mahorati

Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi **eng asosiy meyoriy hujjat Davlat ta'lim standartidir.** uning tarkibiy qismiga kiradi:

*O'quv reja
o'quv dasturi
malaka talablari
baholash tizimi.*

-davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim standarti namunasi **Vazirlik tomonidan belgilanadi.**

Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga etkazish uchun ajratilgan **o'quv soatlari** (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning **minimal hajmini** belgilaydi.

16.04.2025 TUSHGAN SAVOLLAR.

Zamonaviy tarbiya mazmuni :

- maqsadning aniqligi
- birgalikdagi faoliyat
- o'z o'zini anglash
- iroda erkinligi
- tarbiyaning shaxsga yonaltirilganligi
- jamoaning ta'siri

Tarbiya qonuniyatları

- ko'p qirrali
- uzluksiz
- ikki tomonlama aloqa
- yaxlit tizimli
- uzoq muddatli
- qarama-qarshilikdan iborat jarayondir

4K modelining tarkibini toping

1. Kommunikativlik
 2. Koolobratsiya
 3. Kreativ fikrlash
 4. Kritik (tanqidiy) fikrlash
- a) 2, 1, 3, 4
b) 1, 2, 3, 4
c) 2, 3, 1, 4

d) 1, 3, 2, 4

Bir o'quvchining onasi muktabga jismoniy tarbiya o'qituvchisi ustida shikoyat qilib keldi. U o'qituvchilar xonasida katta janjal ko'tardi. Janjal avjiga chiqmasligi uchun direktor o`rinbosari bu onaning **ruhiy holatini** tushunishga harakat qilib unga hamdardlik bildirdi. Pedagogik takt va psixalogik bilimlarni ishga solib, **chiroyli muomala** bilan onani tinchlantirdi. Shunda direktor o`rinbosari pedagokka xos bo'lgan qaysi qobilyatni namoyon qilgan?

- A) didaktik qobilyat
- B) kommunikativ qobilyat**
- C) konstruktiv qobiliyat
- D) Bilish qobiliyati

PISA tadqiqotlari har necha yilda o'tkaziladi?

- A) 2 yilda
- B) 4yilda
- C) 6yilda
- D) 3yilda**

Muktabda nizoli vaziyat yuzaga kelganda, uni hotirjam, real va buzmasdan qarash muhimdir. Nizolarni hal qilishning uchta strategiyasi mavjud:

1. **Arbitraj** – Bunday holda, o'qituvchi vaziyatni o'rganish asosida "**qaror qabul qiladigan" hakam**" rolini o'z zimmasiga oladi. U o'quvchilarga qanday qilib yarashish kerakligini, ya'ni kim nima qilishi va kelajakda o'zini qanday tutishi kerakligini aytadi. Muktabdagagi nizolar bo'lsa, o'qituvchi ko'pincha hakam rolini bajaradi.
2. **Muzokaralar** – O'qituvchi nizoning **sabablarini** tushunishga yordam beradi va o'quvchilarga kelishmovchilikni hal qilish yo'llari bo'yicha **mustaqil** ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi.
3. **Mediatsiya** – O'quvchilar nizoni o'zlarini qanday hal qilishni bilmasalar, ular muloqotga xolis yordam beradigan, his-tuyg'ular darajasini pasaytiradigan va yakuniy qarorni qabul qilishga ko'maklashadigan **vositachi** yordamidan foydalanishlari mumkin. O'qituvchining vositachi bo'lishi qiyin, chunki vositachi nizoda xolis va befarq bo'lishi kerak. Bu vazifani muktab psixologiyoki nizoga aloqador bo'limgan boshqa o'qituvchi bajarishi mumkin.

1. Quyidagi holat qaysi nizoni hal qilish strategiyasiga xos?

O'qituvchi vaziyatni o'rganadi va "qaror qabul qiladigan" hakam rolini bajaradi. U o'quvchilarga qanday yarashish kerakligini, kim nima qilishi va kelajakda o'zini qanday tutishi lozimligini aytadi.

- a) Muzokara
- b) Mediatsiya
- c) Arbitraj**
- d) Bahs-munozara

2. Quyidagi tavsif qaysi nizoni hal qilish strategiyasiga tegishli?

O'qituvchi nizoning sabablarini tushunishga yordam beradi va o'quvchilarga muammoni hal qilish yo'llarini topishda mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi.

- a) Arbitraj
- b) Muzokara**
- c) Mediatsiya
- d) Bahs

3. Quyidagicha holat qaysi strategiyaga mos keladi?

O'quvchilar nizoni qanday hal qilishni bilmasalar, ular muloqotga xolis yordam ko'rsatuvchi, his-tuyg'ular darajasini pasaytiruvchi va yakuniy qarorni qabul qilishga ko'maklashuvchi vositachi orqali murosaga kelishadi. Bu vositachi o'qituvchi emas, balki nizoga aloqador bo'lмаган shaxs bo'lishi kerak.

a) Mediatsiya

b) Arbitraj

c) Muzokara

d) Tashxis

Maktabda o'quvchilar o'rtasida nizoli vaziyat yuz berdi. O'qituvchi bu vaziyatga barham berish maqsadida har ikki tomonning fikrini eshitdi, adolatli xulosa chiqardi va bunday holat takrorlanmasligi uchun o'quvchilar bilan suhbatlar olib bordi.

Ushbu holatda o'qituvchi nizoni hal qilishning qaysi usulidan foydalangan?

A) Muzokara

B) Arbitraj

C) Mediatsiya

D) Kelishuv

11-sinfda o'quvchilar o'zaro urishib qolishdi. Sinf rahbari vaziyatni eshitib, uni aniqladi va bolalarni yarshtirib qo'ydi. Bu gap sinfdan tashqariga chiqmasligini aytdi va ularni uylariga ruxsat berdi. Ushbu vaziyatda o'qituvchining qanday qobiliyat namoyon bo'lmoqda?

JAVOB: Mantiqiy qobiliyat

Pedagogik takt (lot. "tactus" – "dahl qilish", "dahldorlik", "his etish", "tuýğ'u") – pedagogning o'quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda **mavjud axloqiy tamoyillar hamda xulq-atvor qoidalariiga rioya qilishi**, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egalligi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi – asosiy 4 bosqich (izohli)

Bosqich	Izoh
• Tashxislash	Bu bosqichda o'qituvchi dars o'tkaziladigan sharoitlarni chuqur tahlil qiladi . Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlari, bilim darajasi, o'quv materiali xususiyatlari, motivatsiya, faoliyat va xulq-atvori, hamda darsning o'quv jarayonidagi o'rni o'rganiladi . Shuningdek, darsdagi nazorat, mustahkamlash, tuzatish, tizimlashtirish jarayonlari ham hisobga olinadi.
• Bashoratlash	Bu bosqichda darsning turli variantlari ko'rib chiqiladi. Qanday shaklda va uslubda o'tkazilsa samarali bo'lishi mumkinligi oldindan taxmin qilinadi. So'ngra qabul qilingan mezonlarga mos keladigan eng maqbul variant tanlanadi . Masalan, sinfning tayyorgarlik darajasi, mavzuning murakkabligi, vaqt cheklovi inobatga olinadi.
• Loyihalashtirish	Bu bosqichda o'qituvchi darsning strukturasi va asosiy vazifalarini rejalashtiradi . Ya'ni darsda qanday metodlar ishlataladi, qanday savollar beriladi, qanday faoliyatlar tashkil etiladi, deb umumiy "sanoq xaritasi" tuziladi. Loyihalashda nazorat va baholashga alohida e'tibor beriladi.
• Rejalashtirish	Bu darsga tayyorgarlikning yakuniy bosqichi bo'lib , unda o'qituvchi o'zining harakat rejasini aniq va qisqa yozma hujjat tarzida belgilab oladi. Bu reja – boshqaruv dasturi bo'lib , dars jarayonidagi muhim holatlarni o'z ichiga oladi: <ul style="list-style-type: none"> - <i>qachon va kimdan savol so'rash</i> - <i>mavzuni qayerda kiritish</i> - <i>dars bosqichlarini qanday bog'lash</i> - <i>kutilmagan holatlarda darsni qanday o'zgartirish</i> Bu hujjat o'qituvchiga darsni ishonchli olib borishga yordam beradi.

1. Tashxislash

bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilar va sinfdagi sharoitni chuqur tahlil qiladi.

2. Bashoratlash

Darsning turli variantlari oldindan taxmin qilinadi va eng ma'qulini tanladi.

3. Loyihalashtirish

*Darsning tuzilmasi, metodlar, savollar va faoliyatlar **rejalashtiriladi**.*

4. Rejalashtirish

Yozma reja shakllantirilib, dars jarayoni boshqariladi.

1. Bu bosqichda o'qituvchi dars o'tkaziladigan sharoitlarni chuqur tahlil qiladi. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlari, bilim darajasi, o'quv materiali xususiyatlari, motivatsiya, faoliyat va xulq-atvori, hamda darsning o'quv jarayonidagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, darsdagi nazorat, mustahkamlash, tuzatish, tizimlashtirish jarayonlari ham hisobga olinadi.

Bu bosqich qaysi nom bilan yuritiladi?

- A) Bashoratlash
- B) Rejalashtirish
- C) **Tashxislash**
- D) Loyihalashtirish

2. Bu bosqichda darsning turli variantlari ko'rib chiqiladi. Qanday shaklda va uslubda o'tkazilsa samarali bo'lishi mumkinligi oldindan taxmin qilinadi. So'ogra qabul qilingan mezonlarga mos keladigan eng maqbul variant tanlanadi. Masalan, sinfning tayyorgarlik darajasi, mavzuning murakkabligi, vaqt cheklovi inobatga olinadi.

Bu bosqich qaysi nom bilan yuritiladi?

- A) Tashxislash
- B) Bashoratlash**
- C) Loyihalashtirish
- D) Rejalashtirish

3. Bu bosqichda o'qituvchi darsning strukturasi va asosiy vazifalarini rejalashtiradi. Ya'ni darsda qanday metodlar ishlataladi, qanday savollar beriladi, qanday faoliyatlar tashkil etiladi, deb umumiy "Yo'l xaritasi" tuziladi. Loyihalashda nazorat va baholashga alohida e'tibor beriladi.

Bu bosqich qaysi nom bilan yuritiladi?

- A) Rejalashtirish
- B) Bashoratlash
- C) Tashxislash
- D) Loyihalashtirish**

4. Bu darsga tayyorgarlikning yakuniy bosqichi bo'lib, unda o'qituvchi o'zining harakat rejasini aniq va qisqa yozma hujjat tarzida belgilab oladi. Bu reja – boshqaruv dasturi bo'lib, dars jarayonidagi muhim holatlarni o'z ichiga oladi:

- qachon va kimdan savol so'rash
- mavzuni qayerda kiritish
- dars bosqichlarini qanday bog'lash
- kutilmagan holatlarda darsni qanday o'zgartirish

Bu hujjat o'qituvchiga darsni ishonchli olib borishga yordam beradi.

Bu bosqich qaysi nom bilan yuritiladi?

- A) Tashxislash
- B) Loyihalashtirish
- C) Rejalashtirish**
- D) Bashoratlash

O'z-o'zini bilish jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksianing passiv shakli ustuvorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli **qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarini shunchaki qayd** qilib boradi.

O'z-o'zini anglash jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan "metapozitsiya" (noaniq pozitsiyada)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, **interiorizatsiya** (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, **kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi**, refleksiv "MEN" shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish zonasini bilan bog'liq.

O'z-o'zini belgilash jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. **Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi.** Haqiqiy "MEN" va ideal "MEN" nisbatlanadi. Bu o'qituvchining eng yaqin rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

O'z-o'zini rivojlanтирish jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksivalangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat **usullari va metodlarining** o'sishi sodir bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z-o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

1. O'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni faqatgina qayd qilish darajasida kechadigan, refleksiyaning passiv shakli ustuvor bo'lgan jarayon qanday nomlanadi?

- A) O'z-o'zini rivojlantirish
- B) O'z-o'zini anglash
- C) O'z-o'zini bilish**
- D) O'z-o'zini nazorat qilish

2. O'qituvchining o'z faoliyatiga tashqaridan turib baho berishi, "metapozitsiya" orqali o'zini kuzatishi, kasbiy qiyinchiliklar sabablarini aniqlab, asosiy maqsadni tushunishga olib boruvchi, refleksiv "MEN" shakllanishi bilan bog'liq jarayon qanday nomlanadi?

- A) O'z-o'zini anglash**
- B) O'z-o'zini nazorat qilish
- C) O'z-o'zini belgilash
- D) O'z-o'zini rivojlantirish

3. Boshlang'ich darajadagi kasbiy ehtiyojlarni aniqlash, mavjud imkoniyatlar asosida faoliyatni rejalashtirish, strategik, taktik va tezkor vazifalarni shakllantirish orqali haqiqatdagi "MEN" va ideal "MEN"ni taqqoslash qaysi bosqichga tegishli?

- A) O'z-o'zini anglash
- B) O'z-o'zini belgilash**
- C) O'z-o'zini bilish
- D) O'z-o'zini nazorat qilish

4. Pedagogik faoliyat davomida ilgari foydalanilgan metod va harakat usullarining samaradorligini baholab, ularni takomillashtirib borish, eng optimal metodlarni aniqlash va mahoratni oshirish jarayoni qanday nomlanadi?

- A) O'z-o'zini belgilash
- B) O'z-o'zini anglash
- C) O'z-o'zini nazorat qilish
- D) O'z-o'zini rivojlantirish**

5. Pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajriba asosida o'zini kasbiy jihatdan baholash, jarayonni tahlil qilish va kelgusi faoliyatni tahliliy nazorat ostida olib borish qaysi jarayonning asosiy belgisi hisoblanadi?

- A) O'z-o'zini anglash
- B) O'z-o'zini rivojlantirish
- C) O'z-o'zini belgilash
- D) O'z-o'zini nazorat qilish**

Moslikni aniqlang

Bosqich	Ttegishli ma'lumot
A. O'z-o'zini bilish	1. O'z faoliyatini kuzatish, muammolar sababini aniqlash, "metapozitsiya"ga ko'tarilish.
B. O'z-o'zini anglash	2. Faqat ma'lumotlarni qayd qilish, refleksiyaning passiv shakli ustuvor bo'lgan jarayon.

C. O‘z-o‘zini belgilash	3. Haqiqiy va ideal “MEN” nisbatini aniqlash, strategik va tezkor vazifalarni belgilash.
D. O‘z-o‘zini rivojlantirish	4. Ilgari qo‘llangan samarali metodlarni tahlil qilish va takomillashtirish.
E. O‘z-o‘zini nazorat qilish	5. Faoliyatni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, baholab, xulosa chiqarish.

- A) A–1, B–3, C–2, D–5, E–4
 B) A–1, B–2, C–3, D–4, E–5
 C) A–2, B–3, C–1, D–5, E–4
D) A–2, B–1, C–3, D–4, E–5

Moslikni aniqlang

A. Arbitraj	1. Nizo ishtirokchilarining muloqotiga xolis yordam beruvchi vositachi orqali murosa yo‘lini topishga ko‘maklashish.
B. Muzokalar	2. O‘qituvchi vaziyatni o‘rganib, o‘quvchilarga yarashish yo‘llarini ko‘rsatadi, aniq qaror chiqaradi.
C. Mediatsiya	3. O‘qituvchi o‘quvchilarga nizo sabablarini tushunishda yordam beradi va mustaqil hal qilishga yo‘naltiradi.

- A) A–2, B–3, C–1**
 B) A–3, B–2, C–1
 C) A–1, B–2, C–3
D) A–2, B–1, C–3

O‘qituvchi dars davomida tur xil jadvallardan, sxemalardan foydalandi. Shunda o‘qituvchi Blum taksonomianing qaysi turini qollagan.

- A) Tushunish**
B) Baholash
C) Sintez
D) Bilish

Ta’lim vositalarining umumiyl xususiyatlari

- Ta’lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo‘lishi mumkin emas.**
 Har bir vosita o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ularning **birgalikda qo‘llanilishi** ta’lim samaradorligini oshiradi.
Ta’lim vositalari bir-birini inkor etmaydi.
- O‘qituvchining vazifasi** – dars jarayonini faollashtirish uchun **ta’limning samarali vositasini tanlab olishdan iborat.**

Ta’lim vositalarini tasniflashda quyidagi yondashuvlar mavjud:

- Faoliyat subyektiga ko‘ra**
 - O‘rgatish vositalari
 - O‘rganish vositalari

2. Faoliyat obyekti ko'ra

- Material vositalar
- Ideal vositalar

3. O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra

- Yangi materialni o'rganish vositalari
- Takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari
- Bilimlarni nazorat qilish vositalari
- O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari
- Axborot vositalari

4. O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra

- Kommunikatsiya (muloqot) vositalari
- O'quv ishlari vositalari

Faoliyat subyekti bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'rganishga bo'linadi.

1. O'rgatish vositalari.

Masalan: namoyishli-tajriba qurollari.

Bu qurollar o'qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

2. O'rganish vositalari.

Masalan: laboratoriya-praktikum qurollari.

Bu vositalar o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo'llaniladi.

Didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchi uchun xosligiga qarab ikki turga bo'linadi:

1. O'qituvchi vositalari.

Narsalar o'qituvchi tomonidan ta'limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo'llaniladi.

2. O'quvchi vositalari.

O'quvchilarning individual vositalari: darsliklar, daftarlari.

Bundan tashqari, didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyat turi asosida quyidagilarga bo'linadi:

- sport qurollari
- botanika va geografiya maydonchasi
- kompyuterlar

Faoliyat obyektlari bo'yicha ta'lim vositalari ikki turga bo'linadi:

1. Material ta'lim vositalari.

- o'quv qo'llanmalari
- darsliklar
- jadvallar
- maketlar
- modellar
- o'quv-texnik vositalar
- mebel
- o'quv-laboratoriya qurilmalari
- ko'rgazmali vositalar

2. Ideal ta'lim vositalari.

Pedagog va o'quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar:

- chizmalar

- sxemalar
- diagrammalar
- tasviriy san'at
- nutq
- xat va boshqalar

Ideal vositalar bu “fikrlar haqidagi fikrlar” bo'lib, o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur.

Ularning ikki ko'rinishi mavjud:

- **Materializatsiya** – abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar)
- **Verbalizatsiya** – nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish)

O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lif vositalari quyidagilarga bo'linadi:

1. Yangi materialni o'rganish vositalari
2. Takrorlash vositalari
3. Mustahkamlash vositalari
4. Umumlashtirish vositalari
5. Bilimlarni nazorat qilish vositalari
6. O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari
7. Axborot vositalari

O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lif vositalari ikki turga bo'linadi:

1. **Kommunikatsiya (muloqot) vositalari**
 - O'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ faoliyatli jarayon.
 - Kommunikatsiya – bu **kodlash** (o'qituvchi nutqidagi atamalar), **uzatish** (yozilish), va **qabul qilish** (tushunish va dastlabki eslab qolish) jarayonidir.
2. **O'quv ishlari vositalari**
 - Vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayoni.

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanilishiga ko'ra tasniflanadi:

1. **Vizual (ko'rish) vositalar:**
 - Haqiqiy (original) narsalar
 - Obrazli ekvivalentlar
 - Diagrammalar
 - Kartalar
2. **Audial (eshitish) vositalar:**
 - Radio
 - Magnitofon
 - Musiqa asboblari
3. **Audio-vizual (ko'rish-eshitish) vositalar:**
 - Ovozli filmlar
 - Televidenie
 - Kompyuterlar

- Didaktik mashinalar
- Elektron darsliklar

Ta'limning texnik vositalari (TTV)

– O‘zida o‘quv axborotlarini **ekranli-ovozli** aks ettiruvchi asbob va moslamalardir.
TTV turlari:

1. O‘quv kinofilmlari
2. Diafilmlar
3. Kompyuterlar
4. Magnitofon tasmalari
5. Radioeshittirish
6. Teleko‘rsatuvarlar

TTV quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Axborot vositalari
2. Aralash (kombinatsion) vositalar
3. Trenajyorlar
4. Bilimlarni nazorat qilish vositalari
5. Audiovizual vositalar

TTVning asosiy funksiyalari:

- Ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi
- O‘quv jarayonining jadallashuvini ta’minlaydi
- O‘quvchilarni idrok qilishga yo‘naltiradi
- Bilimlarni egallashga nisbatan qiziqishni oshiradi
- Dunyoqarashni, ishonchni, axloqiy qiyofani shakllantirishga yordam beradi
- O‘quv ishiga emotsiyonal munosabatni kuchaytiradi
- Bilimlarni nazorat va o‘zini-o‘zi nazorat qilish imkonini beradi

Pedagogik bilimdonlik – bu pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talablar, huquqiy me’yorlar va standartlarga muvofiq tashkil etish qobiliyati hamda kasbiy tayyorgarlik darajasidir.

Bilimdon pedagoga xos sifatlar:

1. ijtimoiy subyektlar bilan o‘zaro aloqada, madaniy muloqotda bo‘lish;
2. mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta’lim mazmuniga tayangan holda qayta ishlash va kasbiy faoliyat jarayonida ulardan samarali foydalana bilsish;
3. o‘quv axborotlarini talabalariga yetkazib bera olish.

“Pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talablar, huquqiy me’yorlar va standartlarga muvofiq tashkil etish qobiliyati hamda kasbiy tayyorgarlik darjasasi.”

- A) Pedagogik mahorat
B) Pedagogik qobiliyat
C) Pedagogik bilimdonlik
D) Pedagogik tafakkur

Quyidagi sifatlar ichidan **bilimdon pedagoga xos bo'lgan sifatlarni belgilang.**

- 1) Ijtimoiy subyektlar bilan madaniy muloqotda bo'lish
- 2) Mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha axborotni izlab topish va uni qayta ishlash
- 3) O'quvchilarga o'z fikrini majburlab singdirish
- 4) O'quv axborotini talabaga yetkazib bera olish
- 5) Shaxsiy manfaatni ustun qo'yish

- A) 1, 2, 5
- B) 1, 2, 4
- C) 2, 3, 4
- D) 2, 4, 5

Ta'lism vositasi	Mos variantni belgilang
1. Material ta'lism vositalari	a) Darslik, maket, o'quv-laboratoriya qurilmasi
2. Ideal ta'lism vositalari	b) Diagramma, nutq, chizma c) Xat, sxema, jadvallar d) Mebel, tasviriy san'at, modellar

- a) 1-A, 2-B
- b) 1-C, 2-A
- c) 1-B, 2-D
- d) 1-D, 2-C

Ta'larning texnik vositalariga qanday vositalar kiradi?

- a) Darsliklar va jadvallar
- b) O'quv kinofilmlari, diafilmlar, kompyuterlar
- c) Rasm va diagrammalar
- d) O'quvchilarni motivatsiyalash vositalari

O'qituvchi dars jarayonida o'zbek adabiy tilining fonetik, leksik va grammatik qonuniyatlariga to'liq amal qiladi. U o'z nutqida me'yoriy talaffuz, uslubiy aniqlik va madaniyatli ifoda vositalaridan foydalanadi. O'qituvchida qaysi jihay ko'zga tashlanmoqda?

- A) Nutq madaniyati
- B) Lingvistik kompetensiya
- C) Tahliliy fikrlash
- D) Badiiy tafakkur

O'qitishdagi adaptiv o'zgarishlarga ko'maklashadi. Birlamchi diagnoz asosida o'qituvchi mazkur ta'limga tsiklida o'qishni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va munosabatlarining boshlang'ich holatini aniqlaydi; birlamchi baholash natijalari asosida o'quvchi tegishli o'quv rejani tanlaydi va kerak bo'lsa, uni o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab modifikatsiya qilishi mumkin.

- A) Formativ baholash
- B) Summativ baholash
- C) Diagnostik baholash
- D) Rivojlaniruvchi baholash

O'quv yili boshlanishidan avval, o'qituvchi o'quvchilarning bilimini dastlabki darajasini aniqlab oldi. Bu baholash o'quvchilarni yangi mavzu yoki dars materialiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi sinfda guruh ishlari va testlar yordamida o'quvchilarning oldingi bilimlarini va o'quv materialiga nisbatan tayyorligini tekshiradi. O'quvchilarning dastlabki holatini aniqlashdan so'ng, o'qituvchi dars rejalarini o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtiradi. O'qituvchi baholash natijalariga asoslanib, o'quvchilarga individual yondashuvlarni belgilaydi va ularning muvaffaqiyatli o'qishi uchun kerakli o'quv materiallari va metodlarni tanlaydi. O'quv yili davomida o'qituvchi bu baholashning natijalarini doimiy ravishda kuzatib boradi va o'quvchilarning bilim darajasini takomillashtiradi.

O'quv yili boshlanishidan avval o'qituvchi o'quvchilarning bilimini dastlabki darajasini aniqlash uchun qaysi baholash turidan foydalanadi?

- A) Formativ baholash
- B) Diagnostik baholash**
- C) Summativ baholash
- D) Rivojlaniruvchi baholash

Formativ baholash nima? Quyidagi ta'riflardan to'g'risini tanlang:

- A) O'quvchilarning bilimini yakuniy tekshirish va darsni yakunlash uchun o'tkaziladigan baholash turi.
- B) O'quvchilarning bilimlarini sinovdan o'tkazib, natijalarni yakuniy baholash uchun ishlatiladigan tur.**
- C) O'qituvchining faoliyatini va metodlarini baholash, darsdan keyin o'tkaziladigan tekshiruv.
- D) O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini dars davomida kuzatish, ularning o'zlashtirish jarayonini yaxshilash uchun olib boriladigan baholash turi.**

O'qituvchi yangi mavzu bo'yicha darsni boshladi. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlaydi va ularga yordam berish uchun kerakli o'zgartirishlarni kiritadi. O'qituvchi o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda yordam ko'rsatadi va o'quv jarayonini yaxshilash uchun doimiy ravishda aloqada bo'ladi.

Yuqoridagi vaziyatda o'qituvchi qaysi baholash turidan foydalanadi?

- A) Diagnostik baholash
- B) Formativ baholash**
- C) Summativ baholash
- D) Rivojlaniruvchi baholash

Qaysi baholash turi dars oxirida yoki semestr tugaganidan so'ng amalga oshiriladi?

- A) Diagnostik baholash
- B) Formativ baholash
- C) Summativ baholash**
- D) Refleksiv baholash

... – bu o'qituvchining ishish vositasi. Zamonaviy yondashuv e'tibor nuqtasini o'zgartiradi va bu jarayonda o'quvchilar faol qatnashishini nazarda tutadi, bu esa ularga o'qishga yordam beradi.

- A) Formativ baholash**
- B) Diagnostik baholash**
- C) Summativ baholash**
- D) An'anaviy yondashuvda baholash**

Kommunikativ qobiliyat: o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida, ularning **ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, muloqotga kirishishda pok ko'ngillilik.** O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

Perseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni **sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik** muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining **psixologiyasini**, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, **sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga adilona baho beradi.**

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan **muhabbatdan** kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini **qalbdan his etish, tushunish**, idrok etish, **ularga achnish** xususiyatlaridir. (*pedagogik hamdardlik*)

Ta'lif jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongiga va tafakkuriga **kam kuch sarflash** evaziga yetkazishi, ta'lif va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lif va tarbiyaviy **qonuniyatlarini** hamda **metodlarini** chuqur o'zlashtirgan holda **samarali dars berish** qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida **jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.**

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli **jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishi**, sinf jamoasining **har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida** namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining o'quv-tarbiyaviy faoliyatni **puxta rejallashtirishi** asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik **vaziyat bosqichlarini oldindan ko'ra olishi.**

Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur **bilishi, o'zlashtirishi va amaliyotda namoyon etishi.**

Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining **ziyakligi va uddaburonligi**, voqeа va hodisalarini chuqur idrok etib, ularga adolatli munosabatda bo'lishi.

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati:

O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfdagi **ijobiylar** **ruhiy iqlim** yaratishi mumkin.

2. Voqealarini oldindan ko'ra olish qobiliyati:

Ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi **kim nima qodir ekanligini oldindan bashorat qila** oladi.

3. Eshitish va his qilish qobiliyati: (**Xotira-sher,qo'shiq**)

Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

4. Kineztetik (teri-muskul) qobiliyati:

O'qituvchining o'z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtini harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yaratadi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

5. Mantiqiy qobiliyat:

Falsafiy mulohazalar yuritishni, **raqamlarni, matematika va murakkab masalalarni** hal qilishni sevadi, **sababiyyat va oqibat** natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi.

6. Shahsnning ichki qobiliyati:

O‘z-o‘zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, **irodasi** mustahkam, **qat’iyatli**, har qanday vaziyatda o‘z fikr-**mulohazasini erkin bayon** eta oladi.

NUTQ

Nutqning to‘g‘riligi va ravonligi

Nutqning **adabiy til** normalariga to‘g‘ri kelishidir. Bunda ikkita jihatga e’tibor beriladi: **urg‘u** va **grammatik normalarga** amal qilinishi.

- **Urg‘u** – so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz etilishini ta’minlaydi.
- **Grammatik norma** – nutqning mazmundorligini, ma’noli ekanligini bildiradi, nutq oqimidagi so‘zlarning o‘zgarishi, mazmunan bir-biriga birikishini ifodalovchi xilma-xil qoidalar yig‘indisidir.

Nutqning aniqligi va ta’sirchanligi

Mazmundor nutqning tinglovchiga ta’sir etish omilidir.

O‘qituvchi so‘z va tilning ravonligi, **notiqlik qobiliyati** bilan **aniq faktlar** asosida o‘quvchilarga bilim beradi. Aniqlik – o‘qituvchi tomonidan ifodalanayotgan voqelik va faktlarga muvofiqlikdir. Aniqlikda o‘qituvchining:

- so‘zlarni to‘g‘ri qo’llay olishi,
- to‘g‘ri talaffuz eta olishi talab qilinadi.

Nutqning mantiqiyligi

Nutqning mantiqiy bo‘lishi o‘qituvchining:

- **so‘z boyligi**,
- **tafakkur** yuritish qobiliyati,
- **idrok** etish mahoratiga bog‘liq.

O‘qituvchi fikr yuritayotgan mavzuga **chuqur bilim** bilan yondashmasa, notiqlik samara bermaydi. Nutqning mantiqiyligi:

- so‘z birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to‘g‘ri kelishi,
- **fikrning izchil** bayon etilishi,
- mantiqiy bog‘lanishlar mavjudligi bilan belgilanadi.

Mavzu matnlari orasida: **xulosa qilib aytganda, shu bilan birga, ta’kidlash lozimki** kabi iboralar orqali mantiqiy bog‘lanish yaratiladi.

Nutqning tozaligi va ifodaliligi

O‘qituvchi nutqining **adabiy til lisoniy** normalariga muvofiq bo‘lishidir.

- **o‘zbek adabiy tiliga mos**,
 - g‘ayriadabiy til unsurlaridan holi bo‘lishi bilan belgilanadi.
- Ifodaliligi:

- nutqning chiroyli, boy va mazmunga ega bo'lishi,
- tinglovchida ta'sir uyg'otuvchi ohang va uslubda bo'lishidir.
- Nutqning toza bolishiga halaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizmdir.**

1. O'qituvchi so'zlarni talaffuz qilayotganda ularning urg'usiga, grammatic shakliga e'tibor beradi. Dars davomida so'zlar o'z o'rniда, grammatic jihatdan to'g'ri ishlataladi.

Bu o'qituvchining nutqida qaysi sifat ko'proq namoyon bo'lgan?

- A) Nutqning tozaligi
B) Nutqning to'g'riliqi va ravonligi
C) Nutqning aniqligi
D) Nutqning mantiqiyligi

2. O'qituvchi har bir yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarga aniq faktlar, tarixiy sanalar va real hayotiy misollar keltirib beradi. U noto'g'ri ma'lumot bermaslik uchun doimo tekshiruv asosida gapiradi.

Bu o'qituvchining nutqida qaysi sifat ko'proq namoyon bo'lgan?

- A) Nutqning aniqligi
B) Nutqning mantiqiyligi
C) Nutqning ravonligi
D) Nutqning ifodaliligi

3. O'qituvchi darsda mavzuni boshlaganidan oxirigacha **fikrlarini izchil** bayon etadi. Har bir jumla oldingisi bilan bog'langan.

Bu o'qituvchining nutqida qaysi sifat ko'proq namoyon bo'lgan?

- A) Nutqning aniqligi
B) Nutqning ravonligi
C) Nutqning mantiqiyligi
D) Nutqning ifodaliligi

4. O'qituvchi dars davomida g'ayriadabiy so'zlardan qochadi. Uning nutqi **adabiy til** normalariga mos bo'lib, estetik jihatdan **chiroyli** ifodalangan. U betakror ohangda, tinglovchini o'ziga jalb etadigan uslubda gapiradi.

Bu o'qituvchining nutqida qaysi sifat ko'proq namoyon bo'lgan?

- A) Nutqning to'g'riliqi
B) Nutqning tozaligi va ifodaliligi
C) Nutqning aniqligi
D) Nutqning mantiqiyligi

Nutqning tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hodisalar:

- Jargon** – bu muayyan kasb yoki soha mutaxassisligiga xos bo'lмаган so'zlardir.
 - Masalan, kundalik nutqda tibbiyat yoki texnikaga oid tushunarsiz so'zlardan noo'rin foydalanish.
- Varvarizm** – bu muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda boshqa millatlarga xos so'zlarning noo'rin ishlatalishidir.
 - Masalan, o'zbek tilidagi nutqda asossiz inglizcha yoki ruscha iboralarni aralashtirish.
- Vulgarizm** – bu haqoratli, qo'pol ma'nodagi so'zlardir.
 - Bunday so'zlar odobga to'g'ri kelmaydi va dars jarayonida ishlatilmasligi kerak.

4. **Konselyarizm** – bu o‘z o‘rnı bo‘lmagan, noo‘rin vaziyatlarda rasmiy-idoraviy so‘zlardan foydalanish holatidir.
 - ◆ *Masalan, oddiy suhbatda g‘ayrioddiy rasmiy iboralar bilan murakkab gap tuzish.*
5. **Parazit so‘zlar** – bu ortiqcha, keraksiz takrorlanadigan so‘zlardir.
 - ◆ *Masalan, “endi”, “ya’ni”, “umuman”, “bilasizmi” kabi so‘zlarning ortiqcha ishlatalishi.*

Diapazon – tovushning hajmi bo‘lib, uning chegarasi **eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi**.

Diapazonning qisqarishi **nutqni bir xil** ohangda **Zerikarli** bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchining bir ohangda gapirishi tinglovchilar tomonidan axborotni **idrok qilishni pasaytiradi** va ularni zeriktirishi mumkin.

Tembr – tovushning **rang-barangligi, yorqinligi va yumshoqligini** namoyon qiladi. T=T Tembr o‘qituvchi nutqining **chirolyi, mazmunli, jozibali va o‘ziga xos bo‘lishini ta’minlaydi**. Ba’zilar tovush va tembrni tug‘ma deb hisoblashadi. Biroq hozirgi zamонавиу eksperimental fiziologiya tovushni to‘liq qayta qurish mumkinligini isbotlagan.

Diksiya – aniq talaffuz qilish.

Talaffuzning aniqligi o‘qituvchi uchun professional zarurat bo‘lib, uning nutqini o‘quvchilar tomonidan **to‘g‘ri tushunilishini** ta’minlaydi. Bu aytilayotgan so‘z, bo‘g‘in va tovushlarning qat’iy aniqligidir. Diksiya nutq apparati a’zolarining birgalikda ishlashiga bog‘liq (lablar, jag‘, tishlar, yumshoq va qattiq tanglay, kichik til, kekirdak, tomoq orqa devori, tovush naychalari). Til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til va pastki jag‘ nutqda faol ishtirot etadi.

Artikulatsiya – aniq talaffuz qilishni **takomillashtirish**.

Nutq organlarining harakati orqali hosil bo‘ladi. Artikulyatsiya gimnastikasi ikki turga bo‘linadi:

1. Nutq apparatini tayyorlovchi mashqlar
2. Har bir **unli va undosh** tovushni **to‘g‘ri aytishga** o‘rgatuvchi mashqlar (masalan, ifodali o‘qish, tez aytishlar).

Ritmika – gapirishda so‘z va bo‘g‘inlarning aytilish **davomiyligi va to‘xtalishi**.

Nutq va ifodaning to‘g‘ri navbat bilan o‘z o‘rnida qo’llanilishini bildiradi. Bu element ba’zida **intonatsiya va pauza** orqali so‘zdan ham **kuchliroq** emotсional ta’sir beradi. Ritm nutqning asosiy qismlaridan bo‘lib, "nutq ohangi" va to‘xtamlar tinglovchiga o‘ziga xos hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

Didaktik (yoki ta'limiyl) tahlil.

Tahlilning bu turida mavzuning **ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi**, ko'rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning **jonli va ravon tilda** yoritib berilishi nazarda tutiladi.

Uslubiy tahlil.

Bunda o'qituvchi faoliyatining ikki tomoni:

birinchidan, o'rganilayotgan mavzuga darsda mo'ljallangan soatda, uni qanday **usullar** yordamida, o'quvchilarining **yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazib bera olishi**, o'quvchilarini o'yashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi; **ikkinchidan**, o'qituvchi sifatidagi **tajribasi qay darajada** ekanligini namoyish eta olishi nazarda tutiladi.

Psixologik tahlil.

Bu tahlilda, avvalo, o'quvchilarining **kayfiyati**, ularning sog'ligi, jamoadagi so'g'lom **muhit**, o'quvchilarining **hushyorligi**, fanga bo'lgan **qiziqishlari**, o'qituvchiga munosabati, o'quvchilarining **hozirjavobligi**, sezgir va topqirligi, idroki, yangi va avvalgi materiallarni **esda saqlashlari**, ifodali va mantiqiy tafakkurlari, o'quvchilar farazi, oldida turgan mas'uliyatlarga nisbatan o'quvchilarining irodali yoki irodasizligi, ular qiziqishi, bilimi, ko'nikma va malakalar ko'lamni kabi tomonlari tahlil etiladi. O'qituvchining faoliyatida yuqorida keltirilgan vaziyatda **o'z obro'sini saqlagan holda** chiqalishi, o'zini boshqara olishi ham inobatga olinadi.

Pedagogik tahlil.

Tahlilning bu turi ancha murakkab va mas'uliyathi bo'lib, o'qituvchining **tashqi qiyofasi**, o'quvchilar bilan **til topa olish mahorati**, madaniyati, **odobi** bilan birgalikda dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini o'quvchilarga bera olishi va uning **nutq madaniyati** ham nazarda tutiladi.

Metodologik tahlil

Ushbu tahlil mobaynida ta'lif yo'nalishidagi **hukumat qarorlari, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go'zal durdonalari, shu soha bo'yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari, fikrlari, respublikadagi oxirgi o'zgarishlarning mashg'ulot davomida foydalanimishi asos qilib olinishi** mumkin.

Metodologik tahlil – bu ta'lif jarayonining **ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish**, darsning didaktik va pedagogik tamoyillarga mosligini baholash jarayonidir.

Metodologik tahlilning asosiy maqsadi – dars jarayonining ilmiy va nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish hamda ta'lif sifati va **samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar** ishlab chiqishdir.

Yakuniy tahlil (yoki xulosa).

- O'qituvchining qanday mutaxassis ekanligi bo'yicha **fikrlar va turli takliflar, yo'l-yo'riqlar bayon etiladi**.
- Darsni tahlil etish jarayonida, avvalo, **mashg'ulot olib borgan o'qituvchining gapirishi**, so'ngra tahlilda ishtirok etuvchilarining gapirishi maqsadga muvofiq.

1. Maktabning o'quv ichlari bo'yicha direktor o'rinnbosari matematika darsiga tahlilga kirdi. Yakunda o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirayotganda, avval **oddiy** misollardan boshlagani, keyin astasekin **murakkabroq** misollarga o'tganini ta'kidladi. Dars davomida tushunchalarni **ilmiy** asosda izohladi va **hayotiy** misollar bilan mustahkmlaganini alohida e'tirof etib o'tdi.

Bunda tahlilning qanday turidan foydalanilgan?

- A) Uslubiy tahlil
- B) Didaktik tahlil
- C) Psixologik tahlil
- D) Pedagogik tahlil

2. Maktabning o'quv ichlari bo'yicha direktor o'rinnbosari fizika fani o'qituvchisining darsini kuzatarkan, o'qtuvchining dars jarayonida yangi mavzuni tushuntirishda o'quvchilarining **yoshi va individual xususiyatlarini** hisobga olganini alohida ta'kidladi. Dars **uslubiy** jihatdan to'g'ri tashkil qilindi, mavzu tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazildi. O'qituvchi o'quvchilarining mustaqil fikrlashga intilishlarini qo'llab-quvvatladi. **Ushbu vaziyat qaysi tahlil turiga tegishli?**

- A) Didaktik tahlil
- B) Psixologik tahlil
- C) Uslubiy tahlil
- D) Pedagogik tahlil

3. Maktabning ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar o'rinnbosari tarix darsini tahlil qilarkan... dars davomida o'qituvchi o'quvchilarining **kayfiyatini** kuzatdi, diqqat-e'tiborini mavzuga jalb qilish uchun turli motivatsion usullardan foydalandi.

Ushbu vaziyat qaysi tahlil turiga xos?

- A) Uslubiy tahlil
- B) Psixologik tahlil
- C) Pedagogik tahlil
- D) Didaktik tahlil

4. Maktab direktori ona tili darsini tahlil qilib quydagilarga guvoh bo'ldi... pedagog dars davomida o'zining **nutq madaniyatiga, kiyinish uslubiga, o'quvchilar bilan muloqot madaniyatiga** katta e'tibor qaratgan. O'quvchilarga nafaqat bilim, balki odob-axloq qoidalarini ham o'rgatdi. Dars davomida milliy qadriyatlar, tarbiya va umuminsoniy fazilatlar targ'ib qilindi.

Bunda tahlilning qanday turidan foydalanilgan?

- A) Pedagogik tahlil
- B) Didaktik tahlil
- C) Psixologik tahlil
- D) Uslubiy tahlil

5. Maktabning ma'nnaviy-marifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari tarbiya darsiga tahlil uchun kirdi. Yakunda o'qituvchining mashg'ulot davomida **milliy ruh, madaniyatning go'zal durdonalari, shu soha bo'yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari va aytgan fikrlaridan** o'rinnli foydalanganligini ta'kidlab o'tdi.

Bunda tahlilning qanday turidan foydalanilgan?

- A) psixologik tahlil
- B) metodologik tahlil
- C) pedagogik tahlil
- D) didaktik tahlil

6. Yosh mutaxasis hamkasbining tajribasini o'rganish va ta'lif jarayonini tahlil qilish maqsadida uning darsini kuzatdi. Dars davomida **o'quvchilarni qiziqishlarini kayfiyati yaxshi, darsga tayyor ekranliklarini** ta'kidlab o'tdi. Yosh mutaxasis **dars tahlilini qanday turidan foydalandi?**
- A) Pedagogik tahlil
 B) Metodik tahlil
 C) Didaktik tahlil
 D) Psixologik tahlil
7. Direktor o'quv ishlari bo'yicha o'rinosari o'qituvchining darsiga tahliliga kirdi. Darsda **o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muhit yaxshi** ekanligini, o'quvchilarning **hozir javobligini** ko'rdi va baholadi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinosari dars tahlilini qanday turidan foydalangan?
- A) Psixologik
 B) Metadologik
 C) Pedagogik
 D) Uslubiy
8. Direktor o'quv ishlari bo'yicha o'rinosari o'qtuvchining darsini tahlil qilish mobaynida ta'lif yo'nalishidagi **hukumat qarorlari, talablar, davlat tili, respublikadagi oxirgi o'zgarishlarning** mashg'ulot davomida foydalaniishini kuzatdi.
- O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinosari dars tahlilini qanday turidan foydalangan?**
- A) Psixologik
 B) Metadologik
 C) Pedagogik
 D) Uslubiy
9. **Dars tahlilining qaysi turida o'qituvchining qanday mutaxassis ekanligi bo'yicha fikrlar va turli takliflar, yo'l-yo'riqlar bayon etiladi.** Shuningdek, darsni tahlil etish jarayonida, avvalo, mashg'ulot olib borgan **o'qituvchining gapirishi, so'ngra tahlilda ishtirok etuvchilarning gapirishi** maqsadga muvofiq?
- A) Uslubiy
 B) Metadologik
 C) Pedagogik
 D) Yakuniy
10. Pedagog ochiq dars tashkil qildi. Dars yakunlangach, kuzatuvchilar o'qituvchining mutaxassisligi bo'yicha fikrlar, **takliflar hamda yo'l-yo'riqlar bayon etish uchun suhabatlashishdi.** Suhbat jarayonida avval mashg'ulot olib borgan o'qituvchi, so'ngra ishtirokchilar fikr bildirib o'tdi.
- Ushbu vaziyatda dars tahlilining qaysi turi namoyon bo'lmoqda?**
- A) Uslubiy tahlil
 B) Metadologik tahlil
 C) Yakuniy tahlil
 D) Pedagogik tahlil

JAVOB:

- 1. Didaktik tahlil**
- 2. Uslubiy tahlil**
- 3. Psixologik tahlil**
- 4. Pedagogik tahlil**
- 5. Metadologik tahlil**
- 6. Psixologik tahlil**
- 7. Psixologik tahlil**
- 8. Metadologik tahlil**
- 9. Yakuniy tahlil**
- 10. Yakuniy tahlil**

Ma'lumotlardan foydalanganda muallif nomi ko'rsatilishi shart.

Miallit: Zaxiriddin Jumanazarov

Мактабда низоли вазият юзага келганды, уни хотиржам, реал, бузмасдан қараш мұхимдир. Низоларни ҳал қилишнинг учта стратегияси мавжуд.

1. **Арбитраж.** Бундай ҳолда, үқитувчи вазиятни ўрганиш асосида "қарор қабул қиладиган" «ҳакам» ролини ўз зиммасига олади. У үқувчиларга қандай қилиб ярашиш кераклигини, яъни ким нима қилиши ва келажакда ўзини қандай тутиши кераклигини айтади. **Мактабдаги низолар бўлса, үқитувчи кўпинча ҳакам ролини ўз зиммасига олади.**
2. **Музокаралар.** Үқитувчи низонинг **сабабларини тушунишга ёрдам беради** ва үқувчиларга келишмовчиликни ҳал қилиш йўллари бўйича мустақил равишда **қарор қабул қилиш имконини беради.**
3. **Медиация.** Үқувчилар низони ўzlари қандай ҳал қилишни билмасалар, улар мuloқотга **холис ёрдам берадиган, хис-туйғулар даражасини пасайтирадиган** ва яқуний қарорни қабул қиладиган воситачи ёрдамида таъминланиши **мумкин.** Үқитувчи воситачи бўлиши қийин, чунки **воситачи** низода **холис ва бефарқ** бўлиши керак. Бу вазифани мактаб психологи ёки низога алоқадор бўлмаган бошқа үқитувчи бажариши мумкин.



Ақлий тарбиялаш инсон интеллекти, **фикрлаш қобилиятини ривожлантириш, билиш қизиқишиларини шакллантириш** билан боғлиқ. Бу йўналишдаги мақсадлар – бу танқидий фикрлаш, креативликни ривожлантириш, ўқишига мотивацияни қўллаб-куватлаш.

Эстетик тарбия – бу үқувчиларда **санъатга, атроф мухитга муҳаббат ва хурматни шакллантириш, уларни чиройга ва маънавий қадриятларга яқинлаштириш.** Эстетик тарбиянинг мақсадлари болаларда **дид, ҳиссиётлар ва эстетик фаолиятга эҳтиёжни ривожлантириш** билан боғлиқ.

Мехнат тарбияси үқувчиларни **ҳаётда ўз ўрнини топиш ва касбни танлашга қаратилган.** Бу турдаги тарбиянинг таъсири натижасида шахс, ўз зиммасига маълум ижтимоий-жамиятли ролни олиб, ўзини меҳнат фаолиятида намоён этади. Үқитувчи ўз олдига үқувчига ўз афзалликлари ва эҳтиёжлари, қобилиятларини аниқлашда, ўз салоҳиятини очишида ҳамда касбни танлаш ва бўлгуси ҳаёт йўлини белгилашда ёрдам бериш мақсадни қўяди.

Жисмоний тарбиянинг мақсадлари **соғлом яшаш тарзини шакллантириш** ва тобеликни олдини олиш билан боғлиқ.

1. O‘z-o‘zini bilish jarayoni o‘qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma’lumotlarni **qayd qilish darajasida kechadi**. Bunda refleksianing passiv shakli ustuvorlik qiladi. O‘qituvechi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni **shunchaki qayd qilib boradi**.

2. O‘z-o‘zini anglash jarayoni o‘qituvchining o‘z faoliyati va unda o‘ziga nisbatan "metapozitsiya"da turib, o‘ziga tashqaridan qarash, o‘zini kuzatish malakasini ko‘zda tutadi. Bunda interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o‘tishi) hodisasi amalga oshadi. Kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish **sabablari rasmiylashtiriladi**; faoliyatdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, refleksiv – "MEN" shakllanadi. Bu o‘qituvchining dolzarb rivojlanish zonasini bilan bog‘liq.

3. O‘z-o‘zini belgilash jarayonida boshlang‘ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat **rejalashtiriladi**. **Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi**. Haqiqiy "MEN" va ideal "MEN" nisbatlanadi. Bu o‘qituvchining eng yaqin rivojlanish darajasi bilan bog‘liq.

4. O‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining kasbiy faoliyat davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksivalangan (ya‘ni, avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo‘lib chiqqan) **harakat usullari va metodlarining o‘sishi sodir bo‘ladi**.

5. O‘z-o‘zini nazorat qilish o‘qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

1. O‘z-o‘zini bilish

☐ Kalit so‘z: Qayd qilish

❖ Mazmuni: O‘qituvchi o‘z faoliyati haqida shunchaki yozib boradi, ammo chuqur tahlil qilmaydi.

2. O‘z-o‘zini anglash

☐ Kalit so‘z: Kuzatish

❖ Mazmuni: O‘qituvchi o‘ziga tashqaridan qaraydi, xatolar sababini tushunishga harakat qiladi.

3. O‘z-o‘zini belgilash

☒ Kalit so‘z: Rejalashtirish

❖ Mazmuni: O‘qituvchi o‘z hozirgi va ideal holatini solishtirib, maqsad va rejalar tuzadi.

4. O‘z-o‘zini rivojlantirish

☒ Kalit so‘z: Takomillashtirish

❖ Mazmuni: O‘qituvchi samarali metodlarni tanlab, ularni yanada yaxshilaydi.

5. O‘z-o‘zini nazorat qilish

✓ Kalit so‘z: Baholash

❖ Mazmuni: O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, natijalarni doimiy tekshiradi va tuzatadi.

1. O'qituvchi har bir o'quv yili yakunida o'zining dars jarayonida yuzaga kelgan muammolarni, o'quvchilarning yutuqlarini va o'zining faoliyatdagi kamchiliklarini yozib boradi, biroq bu yozuvlar asosida aniq tahlil yoki xulosalar chiqarmaydi. Bu holat o'z-o'zini anglash jarayonining qaysi bosqichiga xos?

- a) O'z-o'zini rivojlantirish
- b) O'z-o'zini belgilash
- c) O'z-o'zini bilish
- d) O'z-o'zini nazorat qilish

2. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilishga harakat qiladi, darslar jarayonida o'zini kuzatib, qanday xatolarga yo'l qo'yayotganini aniqlashga intiladi. U o'zini tashqaridan baholashga va sabablarga chuqurroq yondashishga urinadi. Ushbu pedagogik jarayon qanday nomlanadi?

- a) O'z-o'zini anglash
- b) O'z-o'zini bilish
- c) O'z-o'zini belgilash
- d) O'z-o'zini nazorat qilish

3. Yangi o'quv yili arafasida o'qituvchi o'zining hozirgi kasbiy holatini baholab, kelgusida erishmoqchi bo'lgan ideal darajasini belgilaydi. U strategik maqsadlar qo'yib, faoliyatini shunga mos rejalashtiradi. Bu vaziyatda qanday jarayon yuz bermoqda?

- a) O'z-o'zini rivojlantirish
- b) O'z-o'zini belgilash
- c) O'z-o'zini nazorat qilish
- d) O'z-o'zini bilish

4. O'qituvchi ilgari foydalangan metodlarni tahlil qilib, samarali bo'lganlarini takomillashtiradi. Yangi dars metodikasini ishlab chiqib, amaliyotda sinab ko'radi va faoliyatining sifatini doimiy oshirib boradi. Bu qaysi o'z-o'zini anglash bosqichiga xos?

- a) O'z-o'zini rivojlantirish
- b) O'z-o'zini nazorat qilish
- c) O'z-o'zini anglash
- d) O'z-o'zini belgilash

5. O'qituvchi har oyning yakunida o'zining kasbiy faoliyatini baholab boradi, natijalarni yozib, ilgari qo'yilgan maqsadlar bilan taqqoslaydi. U shuningdek, samaradorlikni oshirish bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Bu qanday o'z-o'zini anglash shakli?

- a) O'z-o'zini anglash
- b) O'z-o'zini nazorat qilish
- c) O'z-o'zini bilish
- d) O'z-o'zini belgilash

6. O'qituvchi o'z faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar, qiyinchiliklar, erishilgan natijalarni faqat qayd qilib boradi. Refleksiya faollashmaydi, shunchaki holatni hujjatlashtirish bilan cheklaniladi.

Bu holat o'qituvchining kasbiy refleksiyasi asosida pedagogik mahoratining rivojlanishiga oid qaysi bosqichga tegishli?

- a) O'z-o'zini anglash
- b) O'z-o'zini rivojlantirish
- c) O'z-o'zini bilish
- d) O'z-o'zini nazorat qilish

7. O'qituvchi o'ziga tashqaridan qaraydi, metapozitsiyada turadi, o'z xatti-harakatlarini kuzatadi. Tashqi omillar ichki mulohazalarga aylanadi. Faoliyat maqsadi aniqlanadi, refleksiv "MEN" shakllanadi.

Bu holat o'qituvchining kasbiy refleksiyasi asosida pedagogik mahoratining rivojlanishiga oid qaysi bosqichga tegishli?

- a) O'z-o'zini belgilash
- b) O'z-o'zini anglash**
- c) O'z-o'zini bilish
- d) O'z-o'zini nazorat qilish

8. O'qituvchi o'zining kasbiy ehtiyojlarini inobatga olib, faoliyatni oldindan rejalashtiradi. Strategik, taktik va tezkor vazifalarni ajratadi. Haqiqiy "MEN" va ideal "MEN" ni solishtiradi.

Bu holat o'qituvchining kasbiy refleksiyasi asosida pedagogik mahoratining rivojlanishiga oid qaysi bosqichga tegishli?

- a) O'z-o'zini anglash
- b) O'z-o'zini belgilash**
- c) O'z-o'zini bilish
- d) O'z-o'zini rivojlantirish

9. O'qituvchi ilgari qo'llagan metodlarning samaradorligini baholaydi, ularni takomillashtirib amaliyotga qayta joriy etadi. Faoliyat jarayonida o'z pedagogik mahoratini oshirib boradi.

Bu holat o'qituvchining kasbiy refleksiyasi asosida pedagogik mahoratining rivojlanishiga oid qaysi bosqichga tegishli?

- a) O'z-o'zini rivojlantirish**
- b) O'z-o'zini nazorat qilish
- c) O'z-o'zini belgilash
- d) O'z-o'zini bilish

10. O'qituvchi o'zining nazariy va amaliy faoliyatini tahlil qiladi. Faoliyatini **muntazam kuzatib, kamchiliklarni aniqlaydi va tuzatadi**. Bu orqali pedagogik mahoratini yanada takomillashtirishga kirishadi.

Bu holat o'qituvchining kasbiy refleksiyasi asosida pedagogik mahoratining rivojlanishiga oid qaysi bosqichga tegishli?

- a) O'z-o'zini anglash
- b) O'z-o'zini belgilash
- c) O'z-o'zini rivojlantirish
- d) O'z-o'zini nazorat qilish**

PEDAGOGIK MULOQOT USULLARI

1. Avtoritar uslub

Bu usulda barcha faoliyatning tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalari faqat pedagog tomonidan belgilanadi. Talabalar o'z tashabbuslariga rag'batlantirilmaydi va ular faqat buyruq va ko'rsatmalar orqali boshqariladi. Bunday usulda, hatto talabalar ijobiy faoliyatni ko'rsatganida ham, ularning yutuqlari turli kesatiqlarga asoslanib baholanadi, bu esa talabalarni yangi yutuqlarga ilhomlantirish o'rniiga, ularda sovuq munosabatni yuzaga keltiradi.

2. Demokratik uslub

Bu usulda pedagog jamoaning fikrini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi. Talabalar o'z fikrlarini erkin bildirishlari mumkin, va pedagog ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab, amaliyotga tatbiq etishga harakat qiladi. Pedagogning vazifasi talabalarni nazorat qilish, ularning faoliyatini to'g'ri baholash va ularni samara olishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi. Har bir talabani yutuqlari alohida e'tirof etiladi, bu esa yangi muvaffaqiyatlarga ilhomlantiradi.

3. Liberal uslub

Liberal usulda pedagog talabalar bilan o'zaro kelishuv va tinchlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatadi. Bu usulda pedagog talabalar tomonidan sodir etilgan salbiy holatlarni ko'rib chiqmaslikka intiladi va ular bilan o'z faoliyatini to'g'ri baholamaydi. Bu usul talabalarni o'z faoliyatlariga qiziqish bildirmaslikka olib keladi va pedagogning obro'sini kamaytiradi.

Avtoritar – Buruq, kuchga beparvoligiga asoslanadi**Demokratik – iltimos, maslahatga beparvoligiga asoslanadi****Liberal – o'qtuvchining beparvoligiga asoslanadi**

11. O'qituvchi darsda o'zining ko'rsatmalariga to'liq bo'ysunishni talab qiladi. Talabalar tomonidan bildirilgan har qanday tashabbus rad etiladi. Hatto yaxshi baho olgan talabani ham "Sen odatda bunday ishlamaydi-ku?" kabi kinoya bilan rag'batlantiradi. Bu qaysi muloqot uslubiga xos?

- a) Demokratik uslub
- b) Liberal uslub
- c) Avtoritar uslub
- d) Hamkorlik uslubi

12. Dars jarayonida o'qituvchi talabalarni muhokamaga faol jalg qiladi. Har bir talabaning fikri e'tiborga olinadi. Tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadi va o'quvchilarning yutuqlari alohida e'tirof etiladi. O'qituvchi talabalar bilan maslahatlashib qaror qabul qiladi. Ushbu vaziyatda qanday uslub qo'llanilgan?

- a) Autoritar uslub
- b) Demokratik uslub
- c) Liberal uslub
- d) Passiv uslub

13. Talaba darsga kechikkaniga qaramay, o'qituvchi unga hech qanday izoh bermaydi. Umashg'ulot davomida tartibni buzganlarga ham e'tibor qaratmaydi. Talabalarning faoliyati bo'yicha baho berish yoki munosabat bildirishdan qochadi. Bunday pedagogik muloqot uslubi qanday nomlanadi?

- a) Demokratik uslub
- b) Avtoritar uslub
- c) Liberal uslub
- d) Maslahatchi uslub

14. Ona o'z farzandining bilimi sustlashgani uchun o'qituvchisi bilan suhbatlashmoqchi. Bunday vaziyatda o'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?

- A)** Farzandining bilimi sustlashhib ketayotganini ochiq oydin aytish kerak
- B)** O'qituvchi bunday vaziyatda hech qanday aybi yo'qligi, bunga faqat farzandining darslarga bee'tiborligi sabab ekanini aytishi kerak
- C)** Avval farzandining ijobiloyi tomonlarini aytib, ayb o'qituvchining o'zida ham borligini

ta'kidlab, so'ng farzandining baholarini muhokama qilish kerak

D) Ona muammo ko'tarayotgan bo'lsa, farzandning intizomsizligini bahona qilib, suhbatdan qo'chgan ma'qul

15. Ota farzandining biologiya fanidan tushunmayotgani haqida shikoyat bilan o'qituvchiga murojaat qildi. O'qituvchi qanday yondashuvni tanlashi kerak?

A) Biologiya – qiyin fan, hammaga ham oson tushmaydi, ota bu holatga ko'nikishi kerak

B) Farzandingizning biologiyaga qiziqishini oshirish uchun bиргаликда ishlashimiz kerak, men ham unga qanday yordam bera olishimni ko'rib chiqaman

C) Farzandingiz sinfda faol emas, darsni tushunmasa bu uning o'zi aybdor

D) Bu muammo ota-onaning darsga e'tiborsizligi sabab yuzaga kelgan, o'qituvchi sifatida menimcha hammasi joyida

16. Sinfda o'quvchilar o'zaro bahslashib, dars davomida shovqin qilishmoqda. O'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?

A) Darsda shovqin qilganlar ro'yxatini tuzib, ularni jazo sifatida ota-onasiga shikoyat qilish kerak

B) Shovqin qilayotganlarni darsdan chiqarib yuborib, qolganlar bilan darsni davom ettirish lozim

C) Voqeaga hissiy reaksiyasiz yondashib, muammoni tinch muhitda tahlil qilish, o'quvchilarga bir-birini tinglash va fikr bildirishda madaniyatni o'rgatish kerak

D) Shovqinga dosh berolmayotgan bo'lsangiz, darsni erta yakunlab chiqib ketganingiz afzal

17. Sinfda ikki o'quvchi o'zaro janjallashib qolgan. Buning ortidan sinf ichida guruh-guruh bo'linish holatlari sezila boshladi. Sinf rahbari qanday yo'l tutishi kerak?

A) Ikkala o'quvchining ota-onasini chaqirib, ularning farzandlarini ogohlantirish kerak

B) Bu kabi vaziyatlarga aralashmaslik kerak, o'quvchilar o'zları hal qiladi

C) Vaziyatni chuqur o'rganib, sinfda do'stona muhit yaratishga qaratilgan suhbatlar tashkil etish, barcha o'quvchilarni jamoaviy mas'uliyatga jalb qilish lozim

D) Ikkala o'quvchini vaqtincha boshqa joylarga o'tkazish haqida rahbariyatga murojaat qilish kerak

18. Sinfdagagi bir o'quvchi darslarga sust qatnashmoqda va ko'p hollarda darsga tayyor emas. Bu holat ota-onasining befarqligi bilan bog'liq. Sinf rahbari qanday chorani tanlashi kerak?

A) O'quvchini ogohlantirib, sinfdoshlari oldida uni tanqid qilish kerak

B) O'quvchining baholarini pasaytirib, intizomiyo jazo choralarini qo'llash kerak

C) Bu masalani faqat fan o'qituvchisining zimmasiga yuklab, sinf rahbari aralashmasligi mumkin

D) O'quvchining oilaviy sharoitini inobatga olib, ota-onasi bilan muloqotni mustahkamlash, bola bilan individual ishlash rejasi tuzish kerak

19. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirar ekan, o'quvchilar faol ishtirok etmayapti, qiziqish sust. Qanday metodik yondashuv to'g'ri bo'ladi?

A) Mavzuni o'zi tushuntirib tugatib, dars oxirida savol-javob o'tkazadi

B) Muammoli savol berib, guruhlarda muhokama tashkil qiladi va o'quvchilarni fikr almashishga jalb etadi

C) O'quvchilar faol emasligi uchun ularni ogohlantiradi va jazo choralarini qo'llaydi

D) O'quvchilarga mavzuni mustaqil o'rganishni topshirib, boshqa darsda muhokama qiladi

20. O'qituvchi o'quvchilarga yangi bilimlarni mustahkamlash uchun qanday metodik yondashuvdan foydalangani maqsadga muvofiq?

- A) Har bir o'quvchidan navbatma-navbat o'tilgan mavzuni so'rab chiqadi
B) Baholashga urg'u berib, xatolar ustidan tanqidiy fikr bildiradi
C) O'quvchilarga kichik guruhlarda loyiha tayyorlash vazifasini beradi va natijalarni taqdim ettiradi
D) Uyga yozma topshiriq berish bilan kifoyalanadi

21. O'qituvchi sinfdagi turli darajadagi o'quvchilarga bir xil topshiriq beradi. Ba'zilar zerikmoqda, ba'zilar qiynalmoqda. Qanday metodik yechim to'g'ri bo'ladi?

- A) Barcha o'quvchilardan bir xil yondashuv bilan natija kutadi
B) Kuchli o'quvchilarga ko'proq topshiriq, sustlariga tanbeh beradi
C) Yagona nazorat varaqasi asosida yakuniy baholash o'tkazadi
D) Differensial yondashuv asosida har bir guruhga ularning tayyorgarligiga mos topshiriqlar beradi

22. Darsda o'quvchilardan biri savolga to'g'ri javob bera olmadi. O'qituvchi qanday yo'l tutishi maqsadga muvofiq?

- A) Savolni boshqa o'quvchiga berib yuborish
B) Xatoni ko'rsatib, unga o'zi javob berish
C) O'quvchini ustidan kulib muhokama qilish
D) Xatoni tushuntirib, o'quvchining o'ziga javobni topishda yordam berish

23. O'qituvchi mavzuni tushuntirgach, ayrim o'quvchilar uni to'liq anglamaganini sezdi. U qanday chorani ko'rishi kerak?

- A) Mavzuni yana bir bor sodda tilda tushuntirishi**
B) Darsni davom ettirishi
C) Anglamagan o'quvchilarga mustaqil o'qishni topshirishi
D) Mavzuni test bilan yakunlashi
24. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini chalg'itayotgan holat yuzaga keldi. O'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?
- A) O'yin yoki interaktiv topshiriq orqali diqqatni darsga qaratish**
B) Ularga tanbeh berish
C) Chalg'igan o'quvchilarni sinfdan chiqarib yuborish
D) O'quvchilarni jazo orqali tartibga chaqirish

25. Bir o'quvchi mashqni o'zgacha usulda, lekin to'g'ri bajardi. O'qituvchi qanday javob beradi?

- A) Faqat darslikdagi usulni ma'qullaydi
B) O'zgacha uslubni noto'g'ri deb baholaydi
C) O'quvchining yangicha yondashuvini e'tirof etadi
D) O'quvchining ishini e'tiborsiz qoldiradi

RELAKSATSIYA. Talabalarda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat "**relaksopediya**" (lotincha "relaxation" – quvvatsizlik, zaiflashish, ruhiy yoki jismonan holda toyish, holdan toyishni bartaraf etish pedagogikasi) deb nomlanadi.

Murakkab vaziyatlarda pedagogik relaksatsiya – talabalar hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini **qayta tiklashni** o'z ichiga oladi.

1. Pedagog darsdan keyin talabalarning ruhiy va jismoniy holatini tiklash maqsadida relaksatsiya mashg'ulotini o'tkazdi. Qaysi belgilari relaksatsiya jarayoniga kiradi?

1. *San'at nanumalarini tinglash*
2. *Yengil tana mashqlari*
3. *Nafas olish mashqlari*
4. *Sport zalida trenajor mashq qilish*

A) 1 va 2

B) 1, 2, 3

C) 2, 3, 4

D) 3 va 4

2. O'qituvchi ota-onalarga qo'ng'iroq qilib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasining pasayganligini ma'lum qildi, shuningdek, ularni qanday qollab-quvvatlash mumkinligi haqida trening tashkil etdi. U bu orqali qanday mehnat vazifasini amalga oshirdi?

A) Ota-onalar bilan tarbiyaviy masalalarni hal qilish

B) Ota-onalarni sinf va maktab hayotiga jalb qilish

C) Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish

D) Ota-onalarni o'quvchilarning ijtimoiy loyihalariga jalb qilish

3. Ona-tili fani o'qituvchisi darsda o'quvchilarning qiziqishi kamayganini sezib, ularni darsga qiziqtirish uchun turli kompyuter texnologiyalaridan foydalandi. Bu orqali o'quvchilarning faolligini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi. Bunday holatda o'qituvchi qaysi mehnat harakatini bajargan hisoblanadi?

A) Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalarini ishlab chiqish

B) O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtirish

C) O'z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish

D) O'quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarini muvofiqlashtirish

4. Biologiya fani o'qituvchisi o'quvchilarga yangi mavzu haqida ma'lumot berishdan oldin, **o'quvchilarning mavjud bilim va qiziqishlarini hisobga olib**, sinfdagi guruhlarni tashkil etdi va muhokama qilish uchun turli resurslardan foydalanishga qaror qildi. Bu orqali o'quvchilar mavzuga faol kirishdi. Bunday holatda o'qituvchi qaysi mehnat harakatini bajargan hisoblanadi?

A) Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalarini ishlab chiqish

B) O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtirish

C) O'z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish

D) O'quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarini muvofiqlashtirish

5. O'quvchilar insho yozishdi, keyin bir o'quvchi boshqalarining kamchiliklarini aytdi. Bunday holatda qanday yo'l tutasiz?

A) O'quvchini tanqid qilaman va boshqalarini hurmat qilishga chaqiraman

B) Boshqa o'quvchilarning fikrlarini ham inobatga olib, konstruktiv munozara tashkil qilaman

C) O'quvchilarga nisbatan qat'iy choralar ko'raman

D) O'quvchilarga bir-birlariga yordam berish va fikrlarini ifodalashda qo'llab-quvvatlashni rag'batlantiraman

6. O'quvchi sizning darsingiz unga foydali emasligini (ya'ni, unga fan kerakmasligini, tushunib o'zlashtirishni yoki qiziqishini yo'qolganini) aytib... **o'zlashtirishi pastlab...** Bunday holatda qanday yo'l tutasiz?

A) O'quvchi bilan individual suhbat o'rnatib, uning qiziqishlarini aniqlashga harakat qilaman.

B) O'quvchini darsga qaytarib jalg qilish uchun motivatsion gaplar aytaman

C) Darsni yanada qiziqarli va interaktiv qilish uchun yangi metodlarni joriy qilaman

D) O'quvchini sabrli bo'lishga undayman va uning fikrini inobatga olgan holda darsni davom ettiraman

7. 7-sinf tarix fani o'qituvchisi o'quvchilarni darsga qiziqmayotganini sezib, qanday usuldan foydalanadi?

A) Tarixiy voqealarni o'quvchilarga interaktiv o'yinlar orqali tushuntirib, darsni qiziqarli qilishga harakat qiladi

B) O'quvchilarga tarixiy mavzularni guruhlar bilan muhokama qilishni va o'z fikrlarini erkin bildirishni taklif etadi

C) Tarixiy voqealarni o'quvchilarning kundalik hayoti bilan bog'lab, ularni tushunishga yordam beradi

D) O'quvchilarga tarixiy voqealar bo'yicha qisqa videolar va vizual materiallar ko'rsatadi

8. O'quvchining grammatikadan bilimi juda yaxshi, ammo og'zaki ifodalashda qiynaladi. O'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?

A) O'quvchiga og'zaki nutqni rivojlantirish uchun ko'proq amaliy mashqlar va suhbatlar o'tkazadi.

B) O'quvchiga grammatikani yanada chuqurroq tushuntirib, nazariy jihatdan batafsilroq taqdim etadi

C) Og'zaki nutqni yaxshilash uchun o'quvchini o'z fikrlarini qisqa yozma shaklda ifodalashga yo'naltiradi

D) O'quvchini jamoaviy munozaralarda qatnashishga taklif qilib, og'zaki ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi

9. Ota-onaga farzandining fanni past o'zlashtirayotganidan xavotirda. O'qituvchining oldiga kelgan ota-onaga qanday yo'l tutadi?

A) O'qituvchi ota-onaga farzandining darsdagi muvaffaqiyatsizligini tushuntirib, qo'shimcha yordam berish bo'yicha tavsiyalar beradi

B) O'qituvchi ota-onaga farzandining darsga bo'lgan qiziqishiga e'tibor qaratib, ularni motivatsiya qilish uchun maslahatlar beradi

C) O'qituvchi ota-onaga farzandining qiyinchiliklarini aniqlab, darsni yanada individual tarzda tashkil qilishni taklif etadi.

D) O'qituvchi ota-onaga farzandining o'qish rejimini va uy vazifalarini yaxshilash bo'yicha aniq reja va tavsiyalar beradi

10. O'qituvchi o'quvchilarga "Otamdan qolgan dalalar" asarini o'qitishda asarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab bog'lash topshirig'ini berdi va muhokama uchun mavzu tanlandi. Bu holatda o'qituvchi qanday o'qitish usulidan foydalangan?

- A) Nazariy o'qitish
- B) Didaktik o'qitish
- C) Amaliy o'qitish**
- D) Interfaol o'qitish

11. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga uzunlik birliklarini o'rganish mavzusidan so'ng, uylariga borib o'z uylari yoki hovlilaridagi buyumlarning uzunligini o'lchab yozib kelish topshirig'ini berdi. Bu holatda o'qituvchi qanday o'qitish usulidan foydalangan?

- A) Nazariy o'qitish
- B) Interfaol o'qitish
- C) Amaliy o'qitish**
- D) Didaktik o'qitish

12. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi "O'simliklarning hayotdagi ahamiyati" mavzusini o'tgach, o'quvchilarga o'z hovlilari yoki mahallalaridagi daraxtlar, gullar va boshqa o'simliklar haqida ma'lumot to'plash, ularning qanday foyda berishini aniqlash topshirig'ini berdi. Bu holatda o'qituvchi qanday o'qitish usulidan foydalangan?

- A) Nazariy o'qitish
- B) Didaktik o'qitish
- C) Amaliy o'qitish**
- D) Interfaol o'qitish

13. Darsda o'qituvchi o'quvchilarga avval muhim bir qoida va tamoyillarni tushuntirib beradi, so'ngra bu qoidalardan kelib chiqib, ayrim hodisalarini tahlil qilishni so'raydi. Bu jarayonda o'quvchilar umumiylardan foydalanib, xususiy holatlarni tushunishga harakat qiladilar. Ushbu suhbat shakli qaysi metodga xos?

- A) Deduksiya**
- B) Induksiya
- C) Illyustratsiya
- D) Namoyish

14. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga turli misollar, hodisalar va dalillarni tahlil qilishni taklif qiladi. O'quvchilar ushbu misollar asosida umumiylardan qoida va tushunchani o'zlarini aniqlab olishadi. Bu suhbat shakli qanday metodga asoslangan?

- A) Deduktisiya
- B) Induksiya**
- C) Illyustratsiya
- D) Namoyish

15. O'qituvchi dars boshida o'quvchilarga bir nechta savollar beradi, ularning javoblariga qarab, kimning mavzu bo'yicha tayyorgarligi qanday darajada ekanini aniqlaydi. Shu asosda dars davomida faolroq yondashuvni rejallashtiradi. O'quvchilarning qiziqishi, bilim darajasi va o'zlashtirish tezligini hisobga olib, mos metodlar tanlaydi. Bu o'qituvchining qaysi faoliyatini anglatadi?

- A) Ta'llim motivatsiyasini shakllantirish
- B) O'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish
- C) Tashxislash faoliyati**
- D) Yangi mavzuni mustahkamlash

16. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida bir nechta uslubiy yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Har bir variantning o'quvchilar faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan tahlil qiladi va eng samarali deb hisoblagan yondashuvni tanlaydi. Bu o'qituvchining qaysi faoliyatiga misol bo'la oladi?

- A) Tashxislash
- B) Rag'batlantirish
- C) Axborot tahlili
- D) Bashoratlash**

Ma'lumotlardan fooydalanganda muallif nomi ko'rsatilishi shart.

**Muallif: Zaxiriddin
Jumanazarov**

Davomi bor...

**To'plovchi:
ZAXIRIDDIN JUMANAZAROV**

@metodik_tomchi kanali